



O'zbekiston Respublikasi
Ichki ishlar vazirligi nashri

Postda Ha nocty

Vatanga va xalqqa sadoqat bilan xizmat qilish – oliy burchimiz!

2024-yil
3-oktabr
payshanba

№ 40 (4682)

Gazeta 1930-yil 12-maydan chiqa boshlagan / Web-site: www.postda.uz / E-mail: info@postda.uz

VATANPARVARLIK TARBIYASI – BU FAQAT HARBIY YOKI TA'LIM SOHASI XODIMLARINING ISHI EMAS. BU – BUTUN JAMIYATNING ISHI.

Shavkat MIRZIYOYEV



20



Ustoz – bog'bondir, bizlar bir nihol,
Parvarish aylaydi kun-u tun tinmay.
Ertani o'ylaydi garchi tun alhol,
Kitob titar ko'zga uyqular inmay.

Unga begona yo'q, yo'qdir bir talab,
Har bir o'g'il-qiz o'z bolasidek.
Kecha kuzatgandi, bugun ertalab –
Bag'riga bosadi tog' lolasidek.



USHBU SONDA:

**O'TMISH VA KELAJAK
TUTASHGAN ZAMIN**



5

**SIYOSIY
PARTIYALAR
VA SAYLOV**



10

**ХАЛҚ
СЕВГАН
ҲОҒИЗ**



24

YUKSAK MUKOFOT SOHIBLARI

SODIQLIK SAMARASI —
SAODAT

Mustaqilligimizning 33 yilligi arafasida xalqimiz osoyishtaligini ta'minlash hamda tinchlik va barqarorligimizni mustahkamlashga munosib hissa qo'shgan bir guruh ichki ishlar organlari xodimlari orden va medallar bilan mukofotlandi. Ular orasida 20 yildan ortiq umrini sharafligina kasbiga bag'ishlagan podpolkovnik Vohidjon Ro'zimurodov ham bor.

Ilk xizmat faoliyatini 2004-yilda qo'riqlash xizmatida boshlagan qahramonimiz keyinchalik Xatirchi, Konimex tumanlari hamda Zarafshon shahri ichki ishlar bo'limi boshlig'i o'rinbosari, jamoat xavfsizligi xizmati boshlig'i lavozimlarida samarali xizmat qildi. Ayni paytda Navbahor tumani IIB boshlig'i, podpolkovnik Vohidjon Ro'zimurodov tuman osoyishtaligini ta'minlash ishida tashabbuskorlik qilmoqda.

Tumanda 41 ta mahalla fuqarolar yig'ini bo'lib, ularning 10 tasi «qizil» hududlar toifasiga kirgandi. Yil davomida hududlar kesimida olib borilgan profilaktik ishlar, fuqarolar bilan tashkil etilgan targ'ibot tadbirlari natijasida vaziyat ijobiy tomonga o'zgardi. Jinoyatlar ko'p sodir etilgan ko'chalarda kameralar o'rnatish ishlari olib borildi. Mahallalarga tungi yoritkichlar o'rnatildi. Probatsiya va yo'l harakati xavfsizligi guruhi tomonidan muntazam nazorat-reyd tadbirlari olib borilmoqda. Jinoyat sodir etishga moyil shaxslar bilan individual profilaktik suhbatlar tashkil etilib, ularning vaqtini mazmunli tashkil etish va bandligini ta'minlash bo'yicha tadbirlar o'tkazilmoqda.

Yo'llarda qoidabuzarlarni aniqlash va yo'l-transport hodisalarining oldini olishda yo'l infratuzilmasini yaxshilash, zarur yo'l belgilarini o'rnatish ishlari bilan bir qatorda, mas'ul YPX inspektorlari tomonidan fuqarolar uchun targ'ibot-tashviqotlar tashkil etilmoqda.

Tumandagi bu kabi osoyishtalik chora-tadbirlarida shaxsiy tarkibga bosh bo'layotgan mas'uliyatli rahbar, podpolkovnik Vohidjon Ro'zimurodovning hissasi katta.



U talabchan rahbar sifatida doim xodimlarning xizmat joyi va yo'nalishini belgilab berish, nazorat qilish, shuningdek, ular bilan tarbiyaviy, huquqiy ahamiyatga ega suhbatlar tashkillashtirishni kanda qilmaydi.

Qahramonimizning «Shuhrat» medali bilan taqdirlanishi uning ona Vatan himoyasi yo'lidagi sharafligi va mashaqqatli xizmatiga berilgan munosib e'tirof bo'ldi.

– Ushbu mukofot nafaqat mening, balki tumanning barcha fidoyi va mehnatkash xodimlari xizmatiga berilgan e'tibordir, – deydi podpolkovnik Vohidjon Ro'zimurodov. – Bu shunday rag'batki, xalqim osoyishtaligi uchun bor kuch, bilimimni safarbar etishga, yoshlarga tajriba, malakamni o'rgatishga undaydi.

Mahliyo XOLOVA,
o'z muxbirimiz.

Navoiy viloyati.



TADBIR

XODIMLAR SALOHİYATINI
OSHIRISHGA XIZMAT QILADI

IIV Malaka oshirish institutida Simulyatsiyalashgan o'quv markaziga tamal toshini qo'yish marosimi bo'lib o'tdi. Shu munosabat bilan o'tkazilgan tadbirda IIV rahbariyati, Koreya xalqaro hamkorlik agentligi (KOICA)ning O'zbekistondagi vakolatxonasi va Koreya Respublikasining mamlakatimizdagi elchixonasi vakillari hamda vazirlik Malaka oshirish instituti professor-o'qituvchilari ishtirok etdi.

Tadbirda so'z olgan Ichki ishlar vaziri o'rinbosari, polkovnik Zufar Kurbanov va Koreya xalqaro hamkorlik agentligining O'zbekistondagi vakolatxonasi direktori Shin Myung Seop mamlakatlarimiz o'rtasidagi o'zaro hamkorlik aloqalari uzoq tarixga borib taqalishini, so'nggi yillarda bu hamkorlik yanada mustahkamlanib borayotganini ta'kidladi. Shuningdek, Ichki ishlar vazirligi bilan Koreya xalqaro hamkorlik agentligi o'rtasida hayotga tatbiq etilayotgan mazkur loyiha ham buning yaqqol tasdig'i ekani qayd etildi.

2023–2027-yillarga mo'ljallangan beg'araz grant loyihasi asosida o'quv markazi binosi politsiya avtomobili boshqaruv simulyatori, sud ekspertizasi, tergov hamda jinoyat joyi xonalari hamda virtual

simulyatsiya va modellashtirish markazidan iborat bo'lib, ularning barchasi Koreya texnologiyasi asosida barpo etiladi hamda jihozlanadi.

– Respublikamizda xavfsiz jamiyat qurib, fuqarolar tinchlik-osoyishtaligini ta'minlashda hamda ichki ishlar organlari xodimlarini zamonaviy texnologiyalar asosida tayyorlab, ularning malakasini oshirishda yangi markaz muhim omil bo'lib xizmat qiladi, – deydi IIV Malaka oshirish instituti boshlig'i, texnika fanlari nomzodi, dotsent, polkovnik Olimjon Ahmedov. – Shu bois bu boradagi ishlarni tez va puxta amalga oshirish maqsadida tinimsiz sa'y-harakatlar olib borilmoqda.

Mixli SAFAROV,
o'z muxbirimiz.



ХИЗМАТЛАРДА

САЙЁҲЛАРГА ТАКЛИФИМИЗ КЎП

Сурхон воҳасида туризмни ривожлантириш, туризм намоиши объектларига хорижлик сайёҳларни жалб этишга катта эътибор қаратилмоқда. Бинобарин, воҳада туризм салоҳияти, қолаверса, сайёҳлар хавфсизлигини таъминлаш учун барча куч-воситалар етарли.



Вилоят ИИБ Хавфсиз туризмни таъминлаш бошқармаси вилоят ҳудудидаги сайёҳлик намоиши объектлари, меҳмонхоналар, чорраҳалар, аэропорт ва вокзаллардаги кузатув камералари билан интеграция қилинган. Бу орқали туристларнинг вилоят ҳудудида кириб келишидан тортиб қайси меҳмонхонага жойлашиб, «E-mehton» базасидан рўйхатдан ўтиши, сайёҳлик объектларига хавфсиз бориши ва қайтиб чиқиб кетиши назорат қилиб борилади.

Суткалик навбатчилик асосида хизмат олиб бориш давомида вилоятимизга ташриф буюрган сайёҳлар томонидан келиб тушаётган мурожаатлар ўз вақтида қабул қилиниб, тегишли ёрдам кўрсатиб келинмоқда. Хусусан, жорий йилнинг 8 ойида ташриф объектларида хизмат олиб бораётган ходимларимизга 3806 нафар хорижлик ва маҳаллий туристлар тури масалаларда ёрдам сўраб мурожаат қилган. Уларнинг барчасига зарурий ёрдамлар кўрсатилган.

Бошқармамиз ходимлари сайёҳлар хавфсизлигини таъминлаш билан бирга, вилоятда туризмни ривожлантириш, ҳудудга сайёҳлар оқимини кўпайтиришга ҳам яқиндан кўмаклашишмоқда. Шу мақсадда яқинда ҳамкасбларимиз Хоразм, Бухоро, Тошкент ва Самарқанд вилоятларига хизмат сафарларини уюштириб, сайёҳлар ўртасида тарғибот ишларини олиб боришди. Жумладан, мазкур вилоятлардаги туризм намоиши объектларида Франция, Хитой, Туркия, Австралия, Бразилия, Латвия каби бир қанча давлатлардан келган мингга яқин хорижликлар билан ўтказилган суҳбат жараёнларида уларнинг аксарияти Сурхондарёнинг туризм салоҳияти ҳақида етарли маълумотга эга эмасликларини билдиришди. Шу боис вилоятнинг миллий аънаналари, туризм объектлари ва тарихий қадамжолари ҳақида тайёрланган видеоролик намоиш қилиниб, ташриф давомида уларнинг хавфсизлиги таъминланиши, лозим бўлганда, керакли ёрдамлар кўрсатилиши ҳақида батафсил маълумот берилди. Хавфсиз туризмни таъминлаш хизмати сайтлари, туризм объектлари йўналиш харитаси акс эттирилган буклетлар тарқатилди.

Акбар МАВЛОНОВ,
капитан.

Сурхондарё вилояти.

НАТИЖАГА БИРГАЛИҚДА ЭРИШАМИЗ

Ургут тумани ИИБ ЖХХ Пробация бўлинмаси назоратида 1200 нафардан зиёд шартли ҳукм қилинган ва муддатидан илгари шартли равишда озод этилган шахслар мавжуд. Улар суд томонидан озодликдан маҳрум қилиш билан боғлиқ бўлмаган жазо тайинланган шахслардир.

Пробация назоратидаги шахсларнинг 345 нафарига ахлоқ тузатиш ишлари, 104 нафарига муайян ҳуқуқдан маҳрум қилиш, 497 нафарига эса муддатидан илгари шартли жазо чоралари тайинланган. Ушбу шахслар билан индивидуал суҳбат ўтказилиб, муаммолари ўрганилмоқда. Хусусан, ID-карта олиш, тиббий кўрикдан ўтказиш, бир марталик моддий ёрдам кўрсатиш билан боғлиқ масалаларни тезкор ҳал этишга ҳаракат қилинмоқда. Мунтазам ўтказилаётган бўш иш ўринлари ярмаркалари эса улар учун муносиб иш топишда яхши имконият яратмоқда.

Тегишли ташкилот ва идоралар билан ҳамкорликдаги ишлар

самараси ўлароқ, жорий йил бошидан буён «Ишга марҳамат» монотармақидидаги ўқув курсларида 40 нафардан ортиқ киши касб-ҳунарга ўқитилди. Бу пробация



назоратидаги фуқаролар бандлигини таъминлашда муҳим омиллардан бири бўлди. Умуман олганда, жорий йилнинг шу даврига қадар бўлинмамизда

рўйхатда турган шахсларнинг 245 нафари бандлиги таъминланди.

Баъзан шундай бўладик, жазони ижро этиш муассасасидан жазо муддатини ўтаб қайтган шахс руҳий тушқунлик ҳолатини бошдан кечиради. Чунки оиласи билан муносабатлари узилган, ишсиз қолган ва зарур ҳужжатлар етишмаслигига дуч келган.

У учун ҳамма нарса янги ва ноодатий, у ўз ҳаётини ўзгартиришни хоҳлайди, лекин буни қандай қилишни билмайди. Бундай кишиларга, аввало, ҳуқуқий ва психологик ёрдам кўрсатилади, йўқолган ҳужжатларни тиклаш ёки олишда кўмаклашилади. Бунда ҳамкорларнинг кўмаги ҳам зарур ва биз буни доим қадрлаймиз. Зотан, ижобий натижага биргаликда эришамиз.

Наврўз АЛҚОРОВ,
Ургут тумани ИИБ ЖХХ
Пробация бўлинмаси
бошлиғи, майор.

Самарқанд вилояти.

САЙЛОВ – 2024

ТАРАДДУД

Айни кунларда республика ҳуқуқни муҳофаза қилувчи органлар масъулларидан иборат ишчи гуруҳ Жиззах вилоятида бўлиб, жорий йилнинг 27 октябрида Олий Мажлис Қонунчилик палатаси ва маҳаллий кенгашлар депутатлиги учун ўтказиладиган сайловлар, шунингдек, тураржойлар ва ижтимоий-иқтисодий соҳа объектларининг куз-қиш мавсумига тайёргарлик жараёнлари билан танишяпти. Чунончи, ишчи гуруҳ таркибида бўлган Ички ишлар вазирининг ўрин-



MENING TANLOVIM — OBOD VATANIM!

босари, полковник Рамазон Ашропов сайлов комиссиялари ва участкаларида сиёсий тадбирни ўтказиш учун яратилган шароитларни ўрганмоқда.

Бунда асосий эътибор сайлов арафасида ҳамда овоз бериладиган кунни жамоат тартиби ва йўл ҳаракати хавфсизлигини таъминлаш, мавжуд 553 та сайлов участкасига кузатув қурилмаларининг ўрнатилиши, аҳолини қийнаётган муаммоларни ҳал қилишга қаратилаётир. Айни мақсадда вилоят ички ишлар бошқармасида ҳокимлик, секторлар раҳбарлари ҳамда ҳуқуқни муҳофаза қилувчи органлар масъуллари ва профилактика инспекторлари иштирокида йиғилиш ташкил қилинди.

Йиғилишда сайловга тайёргарлик кўриш, хавфсизлик ва жамоат тартибини таъминлаш штаби ҳамда жойларда тузилган ишчи гуруҳлар аъзолари ва профилактика инспекторлари томонидан амалга оширилиши лозим бўлган чора-тадбирларга тўхталиб ўтилди. Шунингдек, аҳоли турар жойлари ва ижтимоий соҳа объектларини куз-қишга тайёрлаш, ёнилғи-энергия ресурсларидан фойдаланиш устидан давлат назоратини ташкил этиш, энергия манбалари захираларини яратиш, табиий ва суултирилган газ, кўмир ва иссиқлик энергиясини узлуксиз етказиш масалалари ҳам кўриб чиқилди.

Бундан ташқари, вазир ўринбосари иқтисодий тармоқлари, ижтимоий соҳа объектлари ва кўп квартиралли уй-жой фондини 2024–2025 йиллар куз-қиш даврига тайёрлаш ишларини мувофиқлаштириш ҳудудий штаблари, таълим, соғлиқни сақлаш муассасалари ҳамда қозонхоналарда бўлиб, қишга тайёргарлик ишлари сифатини текширмоқда. Ўз навбатида, аниқланган камчиликлар бартараф қилинаётир.

Алижон АБДУСАТТОРОВ,
ўз мухбиримиз.

Жиззах вилояти.

■ Хорезмская область

ВАЖЕН ИНДИВИДУАЛЬНЫЙ ПОДХОД

Семейные и бытовые ссоры порождают нездоровую среду, негативно влияя на воспитание детей. Это прослеживается в судьбе несовершеннолетних, воспитываемых в Центре оказания социально-правовой помощи ОПП СОБ областного УВД.

К примеру, родители несовершеннолетнего Умида Т. из Ургенча на почве бытовых разногласий развелись. Оставшийся на попечении матери мальчик отбил от рук. Не справившись с сыном,

женщина была вынуждена обратиться в органы внутренних дел. Так Умид оказался в центре.

По долгу службы сотрудникам приходится заниматься проблемами трудновоспитуемых не-

совершеннолетних. К ним требуется особый подход. Исходя из психологического состояния, характера подростка проводятся индивидуальные беседы и занятия. Одновременно поддерживается диалог



■ Бухарская область

Улучшения криминальной ситуации удалось добиться во многом благодаря эффективной работе старшего инспектора профилактики капитана Рамиза Бозорова.

– Он трудится у нас с 2020 года. Тогда махалля находилась в категории «красных». Вместе с активом махалли практически каждый день проводили подворный обход, вели профилактические беседы, призывали к бдительности. Напоминали жителям о том, чтобы не оставляли без присмотра домашнюю живность, общались о чужих людях. Эти усилия не прошли даром. В первый же год махаллю удалось перевести в категорию «зеленых», – говорит председатель схода граждан Санжар Джумаев.

Капитан Р. Бозоров действительно отличается целеустремленностью. Не ограничивается выполнением задач, возложенных на него по службе, активно участвует в общественной работе. В свободное время много читает, в том числе классику узбекской литературы. Успешно выступает на областных и

республиканских смотрах-конкурсах знатоков и книголюбов, занимает призовые места. Также обстоит дело со спортом. Среди коллег слышит сильнейшим борцом. Регулярно входит в число победителей соревнований с участием сотрудников органов внутренних

дел. В минувшем году на первенстве спортивного общества «Динамо» занял почетное третье место.

На недавнем конкурсе «Веселых и находчивых», организованном по инициативе МВД, капитан вошел в число призеров.

Его отец, Раззок Бозоров, в свое время плодот-



с их родителями, даются советы и рекомендации. Это играет важную роль в преодолении непонимания между родными.

Воспитанники центра участвуют в проекте «Келажак сари» («По пути к будущему») концепции «Хавфсиз болалик» («Безопасное детство»). В рамках проекта они посещают службы и подразделения органов внутренних дел, по чрезвычайным ситуациям, воинские части, производственные пред-

приятия, учебные заведения, профессиональные курсы моноцентров. Для них организуются экскурсии в государственный музей-заповедник «Ичан-Кала», другие достопримечательные места. Подобные экскурсии помогают обогащать знания, расширять кругозор несовершеннолетних, имеют воспитательное значение.

Мафтуна ЗАРИФОВА,
старший лейтенант.

ИНСПЕКТОР – УНИВЕРСАЛ

Махалля Косари Вабкентского района входит в категорию «зеленых».



года. Начинать рядовым батальона ППС областного УВД. С 2017 года трудится в отделе профилактики правонарушений службы общественной безопасности Вабкентского РОВД.

– В махалле насчитывается более 1 000 дворов. Сейчас проводим кампанию по пропаганде преимуществ солнечных панелей, призываем население активно устанавливать альтернативные источники энергии у себя дома. Большое внимание уделяем внедрению информационно-коммуникационных технологий, в частности, устанавливаем камеры видеонаблюдения, – говорит старший инспектор профилактики капитан Рамиз Бозоров.

Мирзокул АХАДОВ,
соб. корр.



O'TMISH VA KELAJAK TUTASHGAN ZAMIN

Ellikqal'a tumani Qoraqalpog'istondagi eng qadimiy hududlardan biri hisoblanadi. 1977-yilda tashkil etilgan tumanga Ellikqal'a deb nom berilishining asosiy sababi shuki, ilgari hududda doimo shamol, ya'ni yel esib turgan, qolaversa, bu yerda qal'alar ko'p bo'lgan.

Markazi Bo'ston shahri bo'lgan tuman shimoldan Qizilqum cho'li, Sulton Uvays tog'i, g'arbdan Beruniy va Taxtako'pir tumanlari, janubdan Xorazm viloyati, sharqdan To'rtko'l tumani va Navoiy viloyati bilan chegaradosh.



Tuman hududida tinchlik-osoyshtalikni ta'minlash, jinoyatchilikning oldini olishdek mas'uliyatli vazifalar ichki ishlar organlari xodimlarining zimmasida. Joriy yilning o'tgan davrida tuman IIB xodimlari tomonidan olib borilgan ishlar natijasida umumiy jinoyatchilik o'tgan yilning shu davriga nisbatan 7,1 foizga, jinoyat qidiruv sohasidagi jinoyatlar 15,5 foizga kamaydi. Mavjud 40 ta mahalladan 32 tasi «yashil», 6 tasi «sariq» toifaga kiritildi.

– Albatta, bunda aholi bilan yaqin muloqot va hamkorlikning yo'lga qo'yilgani muhim ahamiyat kasb etdi, – deydi tuman IIB boshlig'i, podpolkovnik Kuanishbay Uzakbayev. – Chunki ishonch tufayli o'rnatilgan har qanday hamkorlik natija bermasdan qolmaydi.

Ma'lumki, jinoyatchilikni jilovlashda profilaktika inspektorlarining hissasi salmoqli bo'lmoqda. Ayni paytda tumanda 23 ta tayanch punkti mavjud bo'lib, jami 40 nafar profilaktika inspektori xizmat faoliyatini olib bormoqda. Joriy yilda ular tomonidan 31 mingdan ziyod xonadonlar o'rganilib, huquqbuzarlik sodir etish yoki undan jabrlanish ehtimoli yuqori bo'lgan shaxslar bo'yicha tayyorlangan xulosalar mahalla faollariga taqdim etildi. 76 ta nizoli oila muammolari hal qilinib, 203 nafar fuqaroning bandligi ta'minlandi.

salari kelib chiqishiga haydovchilarning tezlikni oshirishi sabab bo'lmoqda. Shundan kelib chiqqan holda, haydovchilar o'rtasida olib borilayotgan targ'ibot tadbirlarida mazkur masalaga alohida ahamiyat beraymiz. Kelgusida ham bu boradagi ishlarni maqsadli davom ettirish rejalashtirilgan, – deydi tuman IIB YHXB inspektori, serjant Begzod Qo'chqorov.

Joriy yil boshida tuman IIB probatsiya guruhi hisobida 154 nafar mahkum ro'yxatda turgan bo'lsa, o'tgan vaqt mobaynida ulardan 48 nafari muddatidan oldin shartli ravishda ozod etildi. Ularning qayta jinoyat sodir etishining oldini olish va bandligini ta'minlash uchun 8 marta mehnat yarmarkasi o'tkazildi. Ularda tumandagi qirgqa yaqin korxonalar va tashkilotlar bo'sh ish o'rinlari bilan qatnashdi.

Tumanda xotin-qizlarni himoya qilish, muammolarini hal etish e'tibor markazidagi masalalardan biri hisoblanadi. Tuman IIB HPB xotin-qizlar masalalari bo'yicha katta inspektori, katta leytenant Nilufar Yuldashova tomonidan joriy yilning o'tgan 8 oyi davomida 168 nafar xotin-qiz tazyiq va zo'ravonlikdan jabr ko'rganini aniqlanib, ularga himoya orderlari berildi. Shundan 11 holatda himoya orderi talablarini buzish bo'yicha aybdorlarga nisbatan ma'muriy choralar ko'rildi. Bundan tashqari, 85 ta xonadon o'rganib chiqilib, aniqlangan 44 ta muammoning 32 tasi o'zining ijobiy yechimini topdi. Ayni paytda mahallalarda turli profilaktik tadbirlar o'tkazilib, xotin-qizlar muammolariga mahalla faollari bilan birgalikda yechim topish choralari ko'rilmogda.

Azamat PIRNIYAZOV,
o'z muxbirimiz.

Qoraqalpog'iston Respublikasi.

ELLIKQAL'A VUL FUQAROLAR YIG'I



Tuman hududida harakat xavfsizligini ta'minlash, turli ko'ngilsiz holatlarning oldini olish borasida ham bir qator ishlar yo'lga qo'yilgan. Xususan, yil boshidan buyon eskirgan 59 ta yo'l belgisi yangisiga almashtirilib, 100 ta yo'naltiruvchi ustun barpo qilindi. Tuman hududidan o'tuvchi A-380 avtomobil yo'lga, shuningdek, 1, 3 va 25-umumta'lim maktablari oldiga piyodalar o'tishini tartibga soluvchi zamonaviy svetofor qurilmalari o'rnatildi.

– Sir emaski, bugungi kunda aksariyat yo'l-transport hodi-



В образовательных учреждениях МВД

ПОВЫШАЯ ПРАВОВУЮ КУЛЬТУРУ

Важнейшее направление деятельности академических лицеев МВД Узбекистана – формирование у учащихся глубоких знаний о законодательстве, высокой правовой культуры.

Педагоги Каракалпакского академического лицея МВД Узбекистана демонстрируют успешный опыт реализации этой задачи. Для достижения цели они применяют комплексный подход.

В рамках преподавания дисциплин юридического цикла, а также касающихся правоохранительных органов, используются интерактивные методы – дебаты, кейс-стади. Это способствует активному вовлечению ребят в учебный процесс, развитию у них навыков критического мышления.



Под руководством опытных наставников Жалгаса Торениязова, Амангелди Саймбетова и др. учащиеся осуществляют проектную деятельность – создают презентации, видеоролики на правовую тематику, что не только углубляет их знания, но и развивает навыки самостоятельной работы.

В центре внимания – внеклассные мероприятия. С участием методиста учебного отдела Куралай Базарбаевой проводятся мероприятия «Молодежь и закон», «Конституция – фундамент моих прав», викторины, интеллектуальные игры «Заковат». Функционирует кружок «Знатоки права», на заседаниях

которого лицеисты постигают нормы юриспруденции. Учащиеся 1-го курса Мийрамбек Жумабаев, 2-го курса Сурач Ачилбердиев, Элдорбек Давлетбаев в числе активистов.

Богатый фонд информационно-ресурсного центра играет важную роль в формировании правовой культуры учащихся. Под руководством Инжигул Палуаниязовой организуются книжные выставки, обзоры, учащиеся могут найти учебную и научную литературу по различным правовым вопросам.

Лицей сотрудничает с правоохранительными органами, что позволяет расширить возможности для воспитательной работы. На регулярной основе проходят встречи с ветеранами, которые делятся воспоминаниями о годах службы, что способствует профориентации учащихся.

Гульноз УСЕНОВА,
преподаватель Каракалпакского академического лицея МВД Узбекистана.

ФАХРИЙЛАР – ФАХРИМИЗ

ОЛФА ИНТИЛГАН МАРРАГА ЕТАР

Ҳаётда шундай инсонлар бўладики, улар мудом ҳаракатда, изланишда, янги мақсад-марралар сари интилишда. Аини шу сифатлари билан улар атрофидагиларнинг ҳурмат-эҳтиромига сазовор бўлишадилар. Қашқадарё вилояти ички ишлар органлари турли соҳавий хизматларида 20 йилдан ортиқ фаолият кўрсатиб, бугунги кунда жамоат ишларида фаол иштирок этаётган, тадбиркорлик билан шуғулланиб келаётган Қарши шаҳар ИИОФМБ Фахрийлар кенгаши раиси, истеъфодаги майор Ибодулла Ҳусанов ҳам ана шундай инсон.



1958 йили Қарши шаҳрида, Зиёдулла ака оиласида тўнғич фарзанд сифатида дунёга келган Ибодулла мактабни тамомлагач, Тошкент қишлоқ хўжалиги техникалари институти Қарши филиали сиртқи бўлимига ҳужжат топширди. Имтиҳонлардан муваффақиятли ўтиб, талабалар сафидан жой олди. Олийгоҳда ўқиш билан бирга

Қарши қишлоқ хўжалик техникаларини таъмирлаш корхонасида ишлади. Олийгоҳни битириб, ҳарбий хизматга отланди. Ҳарбий хизматдан қайтгач, Қарши техник таъмирлаш корхонасида ишга кирди. Корхонага келган ички ишлар органи ходимлари билан мулоқот қилиб, соҳада ишлашга қизиқиш уйғонди.

Хизмат фаолиятини 1985 йили Қарши шаҳар ИИБда инструктор вазифасидан бошлаган ёш ходим тизим сир-асрорларини ҳозирда истеъфодаги полковник Низом Фуломовдан ўрганди. Ҳуқуқбузарларни тўғри йўлга бошлаш, уларда меҳнатга тўғри муносабат уйғотиш, қонунбузарларга жиноий қилмиш моҳиятини тушунтириш бўйича билим ва малакасини ошириб борди. Билиб-билмай, адашиб жиноят содир этган шахсларга йўл-йўриқ, маслаҳатлар берди. Шундан сўнг икки йил вилоят ИИБ Матбуот гуруҳи катта инспектори лавозимида иш олиб борди.

Истиқлолнинг дастлабки йилларида Ибодулла Ҳусановнинг фаолияти қўриқлаш хизматида кечди. Дастлаб Қарши шаҳар ИИБ ҳузуридаги Қўриқлаш бўлини маси рота командирининг тарбиявий ишлар бўйича ўринбосари сифатида ходимларга хизмат интизоми ва қонунчиликка риоя этиш, топшириқларни ўз вақтида бажариш хислатларини сингдирди. Кейинчалик эса рота командири, бўлин-

ма бошлиғи ўринбосари, Қўриқлаш бўлими бошлиғи, вилоят ИИБ ҳузуридаги Қўриқлаш бошқармасида бўлим бошлиғи вазифаларида самарали хизмат қилди. Унинг вилоят ИИБ ҲООбда катта инспектор, Махсус ротада сардор сифатида хизмат фаолияти ҳам қизгин кечди.

Шундан сўнг яна қўриқлаш хизматида қайтган Ибодулла Ҳусанов янги ташкил этилган «Шўртан» қўриқлаш ротасига раҳбар этиб тайинланди. Бу даврда ҳам қўл остидаги ходимларнинг касбий, жисмоний ва жанговар тайёргарлигини, маънавий-маърифий билимини ошириш, уларга зарур шароитлар яратиш борасида бор тажриба ва маҳоратини ишга солди.

Ички ишлар органларидаги хизмати давомида ўнлаб ходимларга устозлик қилди. Истеъфодаги подполковник Файрат Тошев, ҳозирда Қарши шаҳар ИИОФМБ 4-сонли ИИБ ҲПБ профилактика катта инспектори, подполковник Миркомил Муродов Ибодулла акани устоз сифатида эъзозлашади.

– Истеъфодаги майор Ибодулла Ҳусанов 16 йилдан буён Қарши шаҳар ИИОФМБ Фахрийлар кенгаши раиси лавозимида фаолият кўрсатиб келяпти, – дейди Қарши шаҳар ИИОФМБ бошлиғининг маънавий-маърифий ишлар бўйича ўринбосари, майор Урал Маҳмудов. – У доим жамоат ишларида фаол, ходимлар ўртасида ўтказилган турли тадбирларда, кўмакка муҳтож фахрийлар ҳолидан хабар олишда бошқош, – Ибодулла акадаги ташаббускорлик, интилувчанлик хислатларидан ёш ходимлар ўрнат олса арзийди.

Ибодулла Ҳусанов турмуш ўртоғи Шаҳодат опа билан 4 фарзандни олий маълумотли, зиёли инсонлар қилиб тарбиялашди. Ҳозир улар турли соҳаларда меҳнат қилишмоқда.

Дарвоқе, серғайрат, тиниб-тинчимас бу инсон пенсияга чиққандан сўнг, 2003 йилда Қарши шаҳрида мактабгача таълим йўналишида тадбиркорлик фаолиятини йўлга қўйди. Ҳозирда унинг раҳбарлигидаги мактабгача таълим ташкилотлари сони 4 тага етган. Ушбу болалар боғчаларида 200 нафардан ортиқ жажжи ўғил-қизлар тарбияланмоқда.

Содиқ РАҲИМОВ,
ўз мухбиримиз.
Қашқадарё вилояти.



OILADA MEHR QARIMAS

– deydi Ishtixon tumani IIB JXX HPB XQMB katta inspektori, kapitan Munira Primova

Nozimaning turmush o'rtog'i Murod (ismlar o'zgartirildi) mavsumiy ishchi. U ish chiqishiga qarab, tez-tez uzoq joylarda tirikchilik qilib qaytadi. Ayoli bilan ro'zg'orining kamini to'ldirib, oziga ko'nikib yashashadi. Nima bo'ldi-yu, uning opasi bilan singlisiga kelinning ishlashi yoqmay qoldi. Aytgancha, Nozima mahalladagi oilaviy poliklinikada hamshira bo'lib ishlaydi. Dastlab qayni opa-singillar, keyin qaynona-kelin o'rtasiga shu sabab sovuqchilik tushdi. To'g'rirog'i, ukasi yo'g'idan foydalanib, qizlar kelib onasini rosa «qayrashdi». Nozima ularning «uyda o'tir», degan shartiga ko'nganida olam guliston edi. Biroq u yaxshi ko'rgan kasbidan voz kechishni istamadi. Qolaversa, oylik maoshini bolalarining zaruratiga ishlatishini aytdi. Murod ham uning ishlashiga qarshi emasdi. Kelinga so'zini o'tkazolmagach, qaynona «qaynadi». Kelin «o'tirsa o'poq, tursa so'poq»ga o'tib oldi. Kamiga, har ikki kunning birida qizlar kelib, kelinni turtkilaydigan odat chiqardi. Keyin Nozimani xiyonatda ayblashdi. Va bunga ukasi Murodni ham ishontirishdi. Tuhmat, zug'um jon-jonidan o'tgan kelin yordam so'rab mahallaga chiqdi...

– Ushbu oiladagi muammolar tufayli er-xotin o'rtasidagi munosabatlar ancha sovuqlashib ulgurgan, vaziyat ajralish yoqasiga kelib qolgandi, – deydi Ishtixon tumani IIB JXX HPB XQMB katta inspektori, kapitan Munira Primova. – Uch nafar norasida go'dak tirik yetim bo'lib qolishi mumkin edi. «Xalqobod» mahallasi xotin-qizlar faoli bilan vaziyatni sinchiklab o'rganib chiqdik. Bildikki, kelin tarbiyasi, oilasini qadrlaydigan ayollardan. Ammo qaynona, qayinopa, qayinsingil qandaydir alamzadalik bilan uni muttasil ayblashda davom etmoqda. Kengashib, kelishib juda ko'p suhbatlar o'tkazdik, vaziyatni atroflicha tushuntirdik. Yo'q, harakatlarimiz besamar ketmadi. Oila saqlab qolindi.

Kapitan Munira Primovaning xizmat hududida ham joriy yilning shu davriga qadar tazyiq va zo'ravonlikdan aziyat chekkan ayollarning 55 nafariga himoya orderi berildi. Himoya orderi berilgan oilalar bilan olib borilgan profilaktik tadbirlar natijasida 29 ta oila yarashtirildi, 26 ta oiladagi notinchlik bartaraf etildi. Eng muhimi, bu oilalardagi muhitning sog'lomligi ta'minlanib, qorako'z go'daklar ota-ona mehridan mosuvo bo'lib ulg'ayishining oldi olindi.

– Oilada mehr qarimaydi, – deydi lavhamiz qahramoni. – Bizning o'zbek ayollarimiz shunchalar sabrli, irodaliki, uyidagi gapni hatto qo'shniga ham olib chiqishga istihola qiladi. Biroq buni ko'pchilik tor o'ylaydi. Ayniqsa, qaynona-kelin munosabatlarida «men nima desam, shu bo'ladi», degan qarash kuchli. Va bu qarash nafaqat

er-xotinning ajralishiga, balki oiladagi farzandlarning ta'lim-tarbiyasi, hayotiga, kelajagiga salbiy ta'sir o'tkazadi. Shu bois xizmatim davomida xonadonma-xonadon yurib, xotin-qizlar bilan yuzma-yuz suhbatlashib, ularni qiynayotgan muammolarni eshitishga harakat qilaman. Toki, ularni qiynayotgan kichik-kichik masalalar kattalashmasin, bir xonadon ayoli yechim topishga qurbi yetmaydigan muammolar ko'pchilik bilan hal bo'lsin, deyman.

Ichki ishlar organlaridagi ilk xizmat faoliyatini 2012-yilda Kattaqo'rg'on tuman 7-sonli tergov hibsonasida boshlagan lavhamiz qahramoni xizmat vazifalarini to'kis ado etishga nihoyatda talabchan xodima. Shu bois bo'lsa kerak, hamkasblari uni «Chumolidek mehnatkash inspektor», deyishadi. Tabiatan quvnoq, samimiy, xushmuomala Munira xotin-qizlar bilan ham tezda til topishadi. Ular bilan qisqa suhbat jaryonida yaqin insoniga aylanib, qiyin vaziyatlarda ko'makka oshiqadi.

– Men olti qizni oq yuvib, oq taragan onaman, – deydi Munavvar aya. – Munira to'rtinchi qizim, bundan bir necha o'n yillar avval to'ng'ich qizim Dilrabo Ichki ishlar vazirligi akademiyasiga o'qishga kirganida yuzimni yerga qaratmagin qizim, yigitlarning safida yigitlardek shaxt bilan xizmat qilgin, degan edim. Vaqtning tez o'tishini qarang, yaqinda u yorug' yuz bilan, podpolkovnik unvonida pensiyaga chiqdi. Unga singlisi ham izdosh bo'ldi. To'g'ri, bu kasbning o'ziga yarasha qiyinchiligi bor. Ammo men qizlarimni Vatan, yurt oldidagi burchini sadoqat bilan bajarishida qo'llab-quvvatlaganman, bundan keyin ham shunday bo'lib qoladi.

Ha, oramizda Munavvar aya kabi bag'rikeng, qalbidaryo, qizlarini hech bir yigitdan kam bo'lmagan shijoat bilan ulg'aytirayotgan, ularga suyanch bo'layotgan onalar bor ekan, kapitan Munira Primova singari fidoyi xodimalar safi kengayib boraveradi.

Gulnoza TURG'UNBOYEVA,
o'z muxbirimiz.

Samarqand viloyati.



SPORT

MAKTABDA VOLEYBOL

Yaqinda poytaxtimizning Bektemir tumanida joylashgan umumiy o'rta ta'lim maktablarining yuqori sinf o'quvchi-qizlari o'rtasida «Maktabda voleybol» shiori ostida «IIV Malaka oshirish instituti boshlig'i kubogi» musobaqasi o'tkazildi.

Qizg'in va murosasiz belashuvlarga boy tarzda o'tgan mazkur bahslarning yakuniy natijalariga ko'ra, 291-sonli maktabning sportchilaridan

iborat jamoa g'oliblikni qo'lga kiritdi.

Raqibidan biroz ortda qolgan 293-sonli maktab qizlaridan tashkil topgan jamoa 2-pog'onani zabt etgan bo'lsa, 289-sonli maktab jamoasi 3-o'rinni egalladi.

G'olib va sovrindorlar diplom, medal va esdalik sovg'alari bilan taqdirlandi.

Sherali ANVAROV,
podpolkovnik.





QO'SHSAHIIFADA

1938-yil 15-yanvarda tashkil topgan Toshkent viloyati mamlakatimizning shimoli-g'arbida, Tyan-Shan tog'i bilan Sirdaryo daryosi oralig'ida joylashgan. Ma'muriy markazi – Nurafshon shahri. Viloyat shimol va shimoli-g'arbdan Qozog'iston, shimoli-sharqdan Qirg'iz Respublikasi, sharqdan Namangan viloyati, janubdan Tojikiston, janubi-g'arbdan esa Sirdaryo viloyati bilan chegaradosh. Maydoni 15,3 ming kv km. Aholisi 3 milliondan ortiq. Viloyat tarkibida 15 ta tuman, 7 ta shahar mavjud.

Sanoati yuqori darajada rivojlangan viloyatlardan biri bo'lgan va 6 ming 500 dan ortiq sanoat, 9 ming 700 ga yaqin qo'shma hamda 35 ming 600 dan ziyod kichik va o'rta biznes subyektlari faoliyat ko'rsatayotgan ushbu hududda respublika sanoat mahsulotining 20 foizi, elektr energiyasining 45 foizi, ko'mirning 98 foizi, sementning 43 foizi, po'lat va metall prokatining 100 foizi ishlab chiqariladi.

XAVFSIZ TURIZM

Viloyat IIBB Xavfsiz turizmni ta'minlash boshqarmasi xodimlari sayyohlik obyektlari va ularga tutash hududlarda huquqbuzarliklarning oldini olish, jinoyatchilikka qarshi kurashish, jamoat tartibini saqlash hamda turistlarning huquq va manfaatlarini himoya qilish yo'lida tinimsiz xizmat qilayotir.

SAYYOHLARNI CHORLAYOTGAN MASKAN

– Joriy yilning o'tgan davri mobaynida viloyatga jami 11 million 170 ming nafar sayyoh tashrif buyurdi, – deydi mazkur boshqarma boshlig'i, podpolkovnik Jamshid Zakirov. – Xususan, ularning 30 mingdan ortig'i xorijliklar bo'lsa, qolgan qismini mahalliy sayyohlar tashkil etadi. Eng qvunarlisi, o'zga yurtlardan kelayotgan mehmonlar soni borgan sari ortib, viloyatimizning so'lim go'shalariga bo'lgan talab darajasi yanada oshmoqda. Ayniqsa, «Chorvoq», «Amirsoy Resort», «Chinorkent», «Heaven's Garden» kabi dam olish maskanlari turistlar oqimining ko'payishiga sabab bo'layotir.

Nafaqat qadimiy va boy tarixi, balki dillarga huzur bag'ishlaydigan serjilo tog'oldi manzarasi bilan sayyohlarni o'ziga maftun etib kelayotgan bu maskanda mehmonlarga xizmat ko'rsatish sifatini yanada yaxshilash borasida ham talay ishlar amalga oshirilmoqda. Mazkur hududdagi turistik zonalarda ko'plab mehmonxona, xostel, oilaviy mehmon uylari, sanatoriy va sog'lomlashtirish obyektlari hamda hunarmandchilik ustaxonalari, suvenir do'konlari, ko'ngilochar va tematik parklar, shu bilan birga, turistik firmalar faoliyati yo'lga qo'yilib, sayyohlar mushkuli oson etilmoqda. Barcha mehmonxona va xostellar «E-mehmon» elektron tizimiga ulangan bo'lib, unga ko'ra, bu yerga kelgan turistlar ushbu



avtomatlashtirilgan dastur orqali ro'yxatdan o'tishadi. Shuningdek, bu yerdagi zamonaviy avtotransport vositalari va hamroh-tarjimonlar ham mehmonlar xizmatida.

Bundan tashqari, boshqarmada faoliyat olib borayotgan xodimlarning xorijiy tillarni bilish darajasiga ham muhim ahamiyat qaratilib, endilikda ular 5 ta tilda sayyohlar bilan bemaol so'zlashishning ud-dasidan chiqishyapti.

Shu paytgacha, viloyat hududiga kelgan chet ellik sayyohlarga yoki ular tomonidan boshqa fuqarolarga biror marta ham jinoiy va ma'muriy harakatlar sodir etilmadi. Shunday bo'lsa-da, o'tgan davr ichida boshqarma xodimlariga turli masalalarda yordam so'rab murojaat etgan barcha xorijlik va mahalliy sayyohlarga zaruriy yordamlar berib kelinmoqda. Bu esa, o'z navbatida, ularning minnatdorligiga sabab bo'lib, soha xodimlari imijining yanada

oshishiga mustahkam zamin bo'layotir.

Yaqinda ham poytaxtlik mehmon T.M. viloyat IIB Xavfsiz turizmni ta'minlash boshqarmasi xodimlariga murojaat qiladi. Ya'ni, «Amirsoy Resort» hududida uyali aloqa vositasini ehtiyotsizligi sababli yo'qotib qo'yganligini bildirib, uni topishda amaliy yordam berishlarini so'raydi. Shundan so'ng katta inspektor, mayor Damir Nazirov tomonidan olib borilgan sa'y-harakatlar natijasida qo'l telefoni topilib, egasiga qaytariladi.

Viloyatda ichki turizmni rivojlantirishga ham asosiy e'tibor qaratilib, bu borada turistlarga qo'shimcha qulaylik va imkoniyatlar yaratish bo'yicha turli tashkilot va tuzilmalarga o'nlab takliflar kiritildi.

Bir so'z bilan aytganda, tizim faoliyatiga oid barcha o'zgarish va islohotlar kelgusida uning rivoji yo'lida mustahkam poydevor bo'lishini ta'minlaydi.

PATRUL SHAHAR KEZADI

ODAMLAR XOTIRJAMLIGI YO'LIDA

Fuqarolarning kunni tinch va xotirjam o'tkazishi uchun astoydil faoliyat olib borayotgan patrul-post xizmati xodimlari sodir etilishi mumkin bo'lgan huquqbuzarlik va jinoyatlarning barvaqt oldini olishda munosib hissa qo'shishmoqda.

...Vaqt allamahall bo'lishiga qaramasdan, Yangiyo'l tumani «Baytish» mahallasi hududidan o'tuvchi katta yo'l chekkasida turgan kimsa har tomonga olazarak qarab, qo'l telefonida kimlargadir bir narsalarni tinimsiz tushuntirardi. Mazkur hududda xizmat olib borayotgan osoyishtalik posbonlari uning bu harakatlaridan shubhalanib, shaxsiga oydinlik kiritish maqsadida yoniga borishdi. Tungi mehmon o'zi haqidagi ma'lumotlar so'ralganida turli bahonalar bilan gapni olib qochdi. Bundan yanada xavotiri oshgan PPX inspektorlari, katta serjant Ma'murjon Saydivaliyev va safdor Kamoliddin Qamarid-

cho'ntagidan qog'ozga o'ralgan giyohvandlik moddasi topiladi. Shundan so'ng daliliy ashyolar rasmiylashtirilib, ekspertizaga, zahri qotil shaydosi esa tuman IIBga olib borildi.

– O'n yetti yillik faoliyatim davomida sohaning ko'plab



dinovlar planshet orqali uning Surxondaryo viloyati Sariosiyo tumanida yashovchi 34 yoshli T.X. ekanligini aniqlashadi.

Shuningdek, xolislari ishtirokida uning yoni ko'zdan kechirilganda, shimining orqa

qirralarini o'rganib, malakamni yanada boyitdim, – deydi M. Saydivaliyev. – Bugungi kunda esa ana shu tajribalarimni endigina tizimga kirib kelgan yosh xodimlarga singdirib kelyapman.



TOSHKENT VILOYATI

PROFILAKTIKA XIZMATI

«XONOBOD» – HAMON «YASHIL» TOIFADA

Hududda sodir etilishi mumkin bo'lgan jinoyatchilik va huquqbuzarliklarning barvaqt oldini olishda profilaktika inspektorlarining ham xizmati beqiyosdir. Chunki, aksariyat hollarda, qonunbuzarlik to'g'risidagi dastlabki xabarlar asosida jinoyatlar «issiq izida» fosh etilib, aybdorlarga nisbatan jazo muqarrarligi ta'minlanadi.

Bekobod tumanidagi «Xonobod» MFYga xizmat ko'rsatuvchi profilaktika inspektori, katta leytenant Ibrohim Rayimqulov umidli yosh xodimlardan biri. U ilk xizmat faoliyatini Zangiota tumani IIB HPB profilaktika inspektori lavozidan boshlagan. Ustozlaridan kasbga oid ko'plab sir-asrorlarni puxta egallab, tajribasini boyitdi, malakasini yanada oshirdi.

Hozirda u xizmat olib borayotgan ko'p millatli «Xonobod» mahallasida ikki mingga yaqin aholi istiqomat qiladi. Tojikiston respublikasi bilan chegaradosh bo'lgan mazkur hududda tun-u kun hushyorlik bilan xizmat olib borib, bu yerdan o'tayotgan barcha notanish fuqaro va avtomobillarni nazorat qiladi.

Mahalla yettiligi va jamoat tashkilotlari bilan hamkorlikda amalga oshirilayotgan keng ko'lamli sa'y-harakatlar natijasida fuqarolarning ertangi kunga bo'lgan ishtiyoqining tubdan o'zgarishiga zamin yaratildi. Jumladan, katta leytenant I. Rayimqulov joriy yilning o'tgan davri mobaynida o'ziga birlashtirilgan hududda turli huquqbuzarliklar sodir etgan 250 nafarga yaqin fuqaroga ma'muriy bayon-noma rasmiylashtirib, bir nafar muqaddam sudlangan shaxsga ma'muriy nazorat o'rnatdi. Huquqbuzarlik sodir etishga moyil bo'lgan 25 nafar fuqaroni profilaktik hisobga oldi. Oilaviy kelishmovchilik tufayli ajralish



yoqasiga kelib qolgan 12 ta oilani yarashtirdi. Shu bilan birga, 2 nafar probatsiya hisobida turuvchi shaxsning o'rnatilgan tartib-qoidalarga amal qilishini ta'minlamoqda.

Bundan tashqari, fuqarolar tomonidan yo'llangan 30 dan ortiq ariza va shikoyatlarni o'z vaqtida o'rganib, ijobiy hal qilishga erishdi. Ana shunday sa'y-harakatlar natijasida kat-

ta leytenant Ibrohim Rayimqulov inspektorlik qilayotgan ushbu mahallada uch yildan buyon birorta ham jinoyat sodir etilmadi.

Shu bois «yashil hudud»ni yanada yashnatib kelayotgan lavhamiz qahramonining fidoyi xizmatlari rahbariyat tomonidan ham munosib qadrlanib, turli mukofotlar bilan taqdirlanib kelinmoqda.

– O'z kasbiga chinakam mehr qo'yib, undan izzat topayotgan I. Rayimqulovni haqiqiy fidoyi xodim deyish mumkin, – deydi tuman IIB boshlig'ining o'rinbosari, podpolkovnik Nizomiddin Qorabekov. – Uning bu kabi hayot yo'lga boshqa safdoshlari ham havas qilib, unga o'xshashga intilishadi.

QILNI QIRQ YORIB

IZLAR «TILGA KIRGANDA»

Tungi soat taxminan 22:30 lar edi. Ziyofatdan chiqqan R.B. piyodalar yo'lakhasidan uyi tomon borarkan, xonadonlardan birining oldida turgan «Damas» rusumli avtomobilni ko'rib xayoli buzildi. Uning salonidagi qimmatbaho jihozlarning yigitchaning nafsini qitiqladi. Asta-sekin mashina oldiga yaqinlashgan R.B. yerda yotgan toshni olib, «Damas»ning oynasini sindirdi. So'ngra ko'zini qovdirtirgan barcha buyumlarni olib, juftakni rostladi.

Ertasi kuni bozorga tushgan huquqbuzar ehtiyot qismlar bilan savdo qiluvchi tadbirkorga o'marilgan «mollar»ni o'zimga deya, aldab sotib, pullarni ehtiyoji yo'lida ishlatib yubordi.

Olmaliq shahar IIB Navbatchilik qismiga «sim qoqqan» haydovchining xabariga ko'ra, tergov-tezkor guruhi bilan birga hodisa joyiga chiqqan EKG katta eksperti, podpolkovnik Lutfulla Tolibov mashina oynasi va uning saloni ichidagi qo'l-barmoq izlarini oldi. Viloyat IIBB Ekspert-kriminalistika markaziga jo'natilgan izlar shaxsni identifikatsiya qilish tizimida tekshirib



ko'rilganida, R.B.ga tegishli ekanligi aniqlandi. Surishtiruvlar davomida mashinadan olingan buyumlar egasiga topshirilib, jinoyatchi qonun hukmiga havola etildi.

Tinchlik-osoyishtalikni ta'minlashga munosib hissa qo'shib kelayotgan tajribali xodim yil boshidan hozirgacha 10 dan ortiq jinoyatning «issiq izida» fosh etilishida shaxsiy namuna ko'rsatdi.

– Huquqbuzarlik haqida qanchalik tez xabar berilsa, gumondorni topish ham shunchalik oson bo'ladi, – deydi biz bilan suhbatda u. – Boisi, jinoyatga aloqador bo'lgan dalilni ashyolardagi izlar ham o'z ahamiyatini yo'qotmagan holda darhol «tilga kiradi».

BIZ KORRUPSIYAGA QARSHIMIZ!

«HOJATBAROR» POCHCHANING OMADI YURISHMADI

Zangiotalik Asadbek Qayumov (ism-shariflar o'zgartirildi) biroz dam olish niyatida avtomashinasini uyining oldiga qo'yib, ichkariga kirib ketdi. Oradan taxminan ikki soatlar o'tgach, ne ko'z bilan ko'rsinki, avtomobili joyida yo'q edi.



Jabrlanuvchi darhol tuman IIBga murojaat qildi. Ichki ishlar organi xodimlari zudlik bilan ishga kirishdi. Ko'p o'tmay, avtomashinani qo'shni mahallada yashovchi Fazliddin Samadov mast holda olib qochib, yaqin hududdagi

qurilishi bitmagan maktab oldiga tashlab ketgani aniqlandi. U qo'lga olinib, tuman IIBga olib kelindi.

Bundan xabar topgan Fazliddinning pochchasi Asror Hamidov tuman IIBga yetib keladi. Ammo qayinukasiga nasihat qilib, to'g'ri yo'lga boshlash o'rniga, uning yonini olib, qamoqqa olish tarzidagi ehtiyot chorasini qo'llamaslik va vaqtinchalik saqlash hibsonasidan ozod etish evaziga tergovchiga pora taklif qiladi. Qonun himoyachisining pochchaga bu harakatlari jinoyat ekanini qayta-qayta tushuntirishlari esa samarasiz bo'ldi.

Tuman IIB huzuridagi Tergov bo'limi tergovchisi, katta leytenant Islomiddin Abdug'aniyev oxir-oqibat holat yuzasidan IIV Shaxsiy xavfsizlik bosh boshqarmasining Toshkent viloyati bo'yicha boshqarmasi boshlig'i nomiga bildirgi bilan murojaat etadi.

Barcha muammolarni pul bilan osongina bitkazish mumkin deb o'ylagan A. Hamidov tezkor tadbir davomida katta leytenant I. Abdug'aniyevga xizmat xonasida 500 AQSH dollarini berayotgan paytida qo'lga olindi.

Sahifa materiallarini o'z muxbirimiz Mixli SAFAROV tayyorladi.

SIYOSIY PARTIYALAR VA SAYLOV

O'zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyev 2023-yil 6-mart kuni deputatlar bilan uchrashuvda siyosiy partiyalarning rolini oshirish maqsadida aralash saylov tizimiga o'tishni taklif qildi. Shu vaqtga qadar yurtimizda saylov jarayonlari majoritar tartibda o'tkazilib, Qonunchilik palatasi deputatlari ushbu saylov tizimi asosida, ya'ni hududiy bir mandatli okrug bo'yicha saylanardi.

Aralash saylov tizimi deganda, saylov jarayonlarida ham **majoritar**, ham **proporsional** usuldan foydalanish tushuniladi. **Majoritar** saylov tizimi ko'pchilik ovozi prinsipiga asoslanadi va bunda, agarda nomzod saylov okrugidagi saylovchilarning yarmidan ko'proq ovozini olgan bo'lsa, unda u saylangan, deb hisoblanadi. **Proporsional** saylov tizimi – saylov tizimlarining bir turi bo'lib, bu tizimda mamlakat hududi yagona saylov okrugiga aylantiriladi hamda saylov byulletenlarida nomzodlar o'rniga saylovda ishtirok etayotgan siyosiy partiyalar ro'yxati ko'rsatiladi va saylovchilar o'zlariga ma'qul kelgan partiyalarga ovoz beradi.

Hozirgi kunda Janubiy Koreya, Belgiya, Vengriya, Qozog'iston, Germaniya va Ispaniya kabi davlatlardagi saylovlar aralash saylov tizimi asosida o'tkaziladi.

Shuni inobatga olgan holda, 2023-yil 18-dekabrda qabul qilingan «O'zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga saylov va referendum o'tkazish tartibini yanada takomillashtirishga qaratilgan o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida»gi qonun bilan Saylov kodeksiga bir qator o'zgartirish va qo'shimchalar kiritildi. Jumladan, Oliy Majlis Qonunchilik palatasi deputatlari saylovini aralash saylov tizimi (majoritar va proporsional) asosida o'tkazishni, shuningdek, saylov organlarining markazlashgan tizimini shakllantirishni, saylov komissiyalari tizimini maqbullashtirishni, O'zbekiston Respublikasi Markaziy saylov komissiyasi faoliyatini takomillashtirishni hamda siyosiy partiyalar tomonidan deputatlikka nomzodlar ko'rsatilayotganda ayollar sonining eng kam miqdorini nomzodlar umumiy sonining o'ttiz foizidan qirq foiziga oshirishni nazarda tutadi.

Chunonchi, Saylov kodeksining 67-moddasida Qonunchilik palatasi deputatlarining yetmish besh nafari bir mandatli saylov okruglari bo'yicha va yetmish besh nafari yagona saylov okruglari bo'yicha siyosiy partiyalarga berilgan ovozlariga mutanosib ravishda partiya ro'yxati asosida saylanishi belgilandi.

Qonunchilik palatasi deputatlari saylovini o'tkazish bo'yicha bir man-

datli saylov okruglarining chegaralari Qoraqalpog'iston Respublikasining, viloyatlarning va Toshkent shahrining ma'muriy-hududiy tuzilishi inobatga olingan holda, qoida tariqasida, O'zbekiston Respublikasining butun hududida saylovchilar soni teng holda belgilanadi. Bir mandatli saylov okrugidan Qonunchilik palatasiga bo'lib o'tadigan saylovda har bir saylov okrugidan bitta deputat



saylanadi. Ya'ni, bir mandatli saylov okruglari bo'yicha tuzilgan saylov komissiyalarining saylov byulletenlarida saylovchi Qonunchilik palatasi deputatligiga ko'rsatilgan nomzodning o'ziga mojaritar tartibda ovoz beradi. Yagona saylov okruglari bo'yicha tuzilgan saylov komissiyalarining saylov byulletenlarida esa saylovchi Qonunchilik palatasida ko'proq o'rin olish uchun kurashayotgan siyosiy partiyani yoqlab ovoz beradi.

Ikkala saylov o'tkazish tartibiga ko'ra saylov natijalarini hisoblash o'ziga xos farq qiladi. Hududiy, tuman, shahar va okrug saylov komissiyasi uchastka saylov komissiyasining bayonnomasidagi tegishli raqamlarni bir mandatli saylov okruglari bo'yicha har bir saylov okruglari bo'yicha natijalarni jamlab borish jadvaliga kiritadi.

Qonunchilik palatasiga yagona saylov okruglari bo'yicha o'tkazilgan saylovda tegishli hudud bo'yicha ovoz berish natijalari faqat uchastka saylov komissiyalarining taqdim etgan bayonnomalari asosida hududiy saylov komissiyasi tomonidan aniqlanadi.

Bir mandatli saylov okruglari bo'yicha ovoz berishda ishtirok etgan saylovchilarning boshqa nomzodlarga nisbatan ko'proq ovoz olgan nomzod saylangan, deb hisoblanadi. Yagona saylov okruglari bo'yicha saylanadigan Qonunchilik palatasining deputatlik o'rinlari esa Saylov kodeksining 96¹-moddasida ushbu saylovda ishtirok etgan saylovchilar ovozlarining yetti va undan ko'proq foizini to'plagan siyosiy partiyalar o'rtasida taqsimlanishi qayd etib o'tildi. Bunda, proporsional saylov tizimida yetti foizlik chegaradan o'tgan partiyalarga yoqlab berilgan umumiy ovozlar soni 75 ta deputatlik o'rniga bo'linadi va undan chiqqan raqam saylov koeffitsiyenti hisoblanadi. So'ngra har bir partiyaga yoqlab

Hozirgi global dunyoda davlatlar va mamlakatlarning iqtisodiy, ijtimoiy va siyosiy taraqqiyoti, insonlar o'rtasidagi fikrlar, qarashlar xilma-xilligi ortgani sari siyosiy partiyalarning davlatda jamiyat manfaatlarini to'laqonli ifoda qilish zaruriyati yuzaga chiqmoqda. Shu nuqtayi nazardan kelib chiqib, 2024-yil 27-oktabrda Qonunchilik palatasi va xalq deputatlari kengashlariga bo'lib o'tadigan saylovlarda siyosiy partiyalar faolroq bo'lishga va o'z dasturlarini xalq manfaatlarini yo'lida hozirgi zamonga moslashtirgan holda dolzarblashtirishga harakat qilishmoqda.

Saylov kodeksining 70-moddasiga muvofiq, siyosiy partiyalar: **bir mandatli saylov okruglari bo'yicha deputatlikka yetmish besh nafar nomzod, ya'ni har bir saylov okrugidan bittadan deputatlikka nomzod ko'rsatishga; partiya ro'yxati bo'yicha yetmish besh nafardan kam bo'lmagan, yuz nafardan ko'p bo'lmagan deputatlikka nomzod ko'rsatishga vakolatlidir.**

Bir mandatli saylov okruglarida ayni bir shaxs faqat bitta saylov okrugidan deputatlikka nomzod etib ko'rsatilishi mumkin.

Partiya ro'yxatiga kiritilgan nomzodlar ushbu siyosiy partiyaning a'zolari yoki partiyasiz bo'lishi mumkin. Boshqa siyosiy partiyaning a'zolari ushbu ro'yxatga kiritilishi mumkin emas.

Ayni bir nomzod faqat bitta partiya ro'yxatiga kiritilishi mumkin.

Bir mandatli saylov okruglari bo'yicha ko'rsatilgan nomzodlar partiya ro'yxatiga kiritilishi mumkin emas.

Deputatlikka nomzodlarni tanlash tartibi siyosiy partiyalar tomonidan belgilanadi.

Saylov kodeksining 69-moddasiga muvofiq, saylovda ishtirok etuvchi partiyalar ro'yxati arizalarning kelib tushishi navbati tartibida markaziy matbuotda e'lon qilinadi.

Xulosa o'rnida aytish mumkinki, siyosiy partiyalar aholining huquqiy madaniyatini va faolligini oshirish, ularning davlat siyosatini tashkil etish va boshqarishdagi ishtirokini ta'minlash orqali davlat va jamiyat o'rtasida o'ziga xos ko'prik vazifasini o'taydi, aholining jamoatchilik fikrini shakllantirishda, fuqarolarning siyosiy hayotda faol ishtirokini ta'minlashda muhim o'ringa ega.

**Sirojiddin ABDOVOITOV,
Sardor ABDUXOLIQOV,
MSK Saylov qonunchiligi va zamonaviy texnologiyalar bo'yicha o'quv markazi yetakchi maslahatchilari.**

OTALIQQA OLINGAN MASKANLARDA

HAMKORLIK TA'LIM VA TARBIYA SIFATINI YAXSHILAYDI

Ta'lim islohotlarini yangi bosqichga olib chiqish, taraqqiy ettirish, yoshlar kelajagi uchun qayg'urishga barcha soha vakillari daxldor. Jamiyat rivoji yoshlar tarbiyasiga, ularning bilim olishi va kelajakda o'z o'rnini topishlariga bog'liq ekan, bu borada hamkorlikda ish tashkil etish zarur.



sida shaxmat bo'yicha musobaqada maktabning 11-sinf o'quvchisi Usmonxo'ja Yusufxonov faxrli birinchi o'rinni egaladi.

– Kitobxon o'quvchilarimiz juda ham ko'p, – deydi kutubxona mudirasi Mahfuzaxon Yusupova. – Boshlang'ich sinf o'quvchilari er-

bu borada o'qituvchilari va kutubxonachi yaqindan ko'mak berib kelmoqda.

O'qituvchilar va o'quvchilar bilan suhbatlarda ularni qiynayotgan muammolar bilan ham qiziqildi. O'z oldiga katta maqsadlar qo'ygan yoshlar tomonidan tibbiyot institutlariga, «Temurbeklar maktabi»ga o'qishga kiradigan o'quvchilar bepul to'garaklar tashkil etib berish taklifi bilan chiqishdi. Shu taklif asosida maktabda tabiiy fanlar yo'nalishida va harbiy bilim yurtlariga kiruvchi o'quvchilar uchun ham to'garaklar tashkil etiladigan bo'ldi.

Belgilangan reja asosida boshqa tumanlarda ham o'rganishlar tashkil etildi. Ta'lim maskanlarining manzillari, mas'ullarning ro'yxatlari va o'quvchilarning ma'lumotlarini aks ettiruvchi «maktab pasportlari» shakllantirilib, mas'ullar bilan kelgusida amalga oshirish lozim bo'lgan chora-tadbirlar belgilab olindi.

Bir so'z bilan aytganda, otaliqqa olingan maktablar bilan doimiy hamkorlik ta'lim va tarbiya sifatini oshirishga xizmat qilib kelmoqda.

Gulchehra BUVAMIRZAYEVA,
o'z muxbirimiz.

Namangan viloyati.

Viloyatimizda 14 ta umumta'lim maktabi hududiy tuman (shahar) ichki ishlar bo'linmalariga birlashtirilgan. Ushbu maktablarga metodik yordam ko'rsatish IIV Namangan akademik litseyiga yuklatilgan.

Litsey direktori, podpolkovnik Ilhomjon Burxonov boshchiligidagi ishchi guruh a'zolari Kosonsoy tumani IIB otaliqqa olgan 2-umumta'lim maktabida o'rganish o'tkazishdi. Maktab tumanning «Kushon» mahallasida joylashgan bo'lib, 1911 nafar o'quvchi tahsil oladi. Joriy o'quv yilida 95 nafar o'quvchi bitiradi. Bitiruvchilar bilan suhbatlar davomida ularning 70 nafari oliy o'quv yurtlarida, 12 nafari texnikumlarda o'qishni davom ettirmoqchi ekanini bildirishdi. 13 nafar kasb-hunarga qiziquvchilar tikuvchilik, pazandachilik,

avtomobil ustasi, sartaroshlikka qiziqishi bor ekanini aytishdi.

– 2023-yilning tashabbusli budjet portali orqali ko'rsatgan faolligimiz evaziga sun'iy qoplamali sport maydoni qurib berildi. Ushbu loyiha natijasida o'quvchilarning va «Kushon» MFY yoshlarining bo'sh vaqtlarini mazmunli o'tkazib, sport bilan shug'ullanishi uchun sharoit yaxshilandi, – deydi maktab direktori Alisher Boltaboyev. – Ta'lim sifati natijadorligi ham yildan-yilga oshib bormoqda.

Maktabda besh tashabbus olimpiadasi yo'nalishida olib borilayotgan ishlarni alohida e'tirof etish joiz. Har yili maktab jamoasi g'oliblar safida. 2021–2022-o'quv yilida musiqa yo'nalishida g'olib

bo'lib, maktabga musiqa asboblari sovg'a qilingan edi. Keyingi yil mazkur yo'nalishdagi tanlovda «Qizlarjon» festivalida Marhamatxon



Toshpo'latova rahbarligidagi to'garak a'zolari birinchilikni olib, 8 ta tikuv mashinasini yutib olishdi. Hozirda maktabda ushbu to'garakda qizlar milliy liboslar tikishni o'rganmoqda. O'tgan yilgi besh tashabbus olimpiada-

tak, hikoyalarga qiziqishadi. Yuqori sinf o'quvchilari o'rtasida ona tili va adabiyot o'qituvchilari bilan hamkorlikda bir oyda ikki marta o'qigan kitoblari asosida «Bir asar tahlili» deb nomlangan tadbir o'tkaziladi. Kitob fondimiz 37 mingdan ortiq bo'lsa, shundan 10 mingdan ortig'ini badiiy adabiyotlar tashkil etadi. Har yili maktabga ota-onalar, mahalla tadbirkorlari, sobiq bitiruvchilar kitob sovg'a qilishni an'anaga aylantirishgan. Shuning hisobiga kutubxona fondimiz ham boyib bormoqda.

Eng yaxshi kitobxon 8-sinf o'quvchisi Dilshoda Asqarxonova respublika «Yosh kitobxon» tanlovida ishtirok etish niyatida. Unga

Quvasoy shahridagi «So'fon» mahalla fuqarolar yig'inida 3750 nafar aholi istiqomat qiladi. Ushbu mahalla hududida 1978-yilda bolalar bog'chasi qurilgan bo'lib, uning binosi yillar davomida ta'mirtalab ahvolda kelib qolgandi.

Farg'ona viloyati hokimligi hamda viloyat ichki ishlar boshqarmasi rahbariyati «mahallabay» o'rganishlar davomida mazkur bog'cha kapital rekonstruksiya qilinishi kerak, degan qarorga kelishdi. Natijada bino ta'mirlanib, zamonaviy jihozlardan ta'liq ta'minlandi. Amalga oshirilgan ishlar va jihozlash jarayoni esa viloyat IIB rahbariyatining doimiy diqqat markazida bo'ldi.

Mazkur bolalar bog'chasi ishga tushirilishini uzoq kutgan mahalla ahliga katta quvonch baxsh etdi. Binoning ochilish marosimida Farg'ona viloyati hokimi Xayrullo Bozorov, Ichki ishlar boshqarmasi boshlig'i, general-mayor Azizbek Ikramov va keng jamotchilik vakillari ishtirok etishdi.

Tadbirida so'zga chiqqanlar foydalanishga topshirilayotgan ushbu ko'rkam binoda farzandlarimiz Va-

tanga muhabbat ruhida tarbiyalanib, kelgusida yurtimiz taraqqiyotiga hissa qo'shadigan munosib avlod bo'lib kamol topishiga tilak bildirishdi.

Shundan so'ng ramziy lenta qirgilib, muassasada yaratilgan shart-sharoitlar ko'zdan kechirildi. Bino ikki qavatdan iborat bo'lib, oltita guruh



xonasi, oshxona, musiqa zali, uslubchi, hisobchi va hamshira uchun alohida xonalar mavjud.

Hovlida o'yingohlar, ayvonchalar, yo'l harakati qoidalarini o'rgatuvchi maxsus maydoncha tashkil etilgani ham bolajonlarning bilim darajasini yanada oshirishga xizmat qilmoqda. Mevali va manzarali daraxtlar ham ekilib, hudud to'liq obodonlashtirildi. Bu esa kelajagimiz vorislarining har tomonlama sog'lom va barkamol bo'lib o'sishida muhim omildir.

Abduvosit SIDIQOV,
o'z muxbirimiz.

Farg'ona viloyati.

Урок духовности и просвещения

ПОЛИТИЧЕСКИЕ ПАРТИИ И ВЫБОРЫ

Ключевое внутривыборное событие нынешнего 2024 года – выборы в Законодательную палату Олий Мажлиса и областные, районные и городские Кенгаши народных депутатов. По решению Центральной избирательной комиссии выборы в Узбекистане состоятся 27 октября текущего года.

Выборы в Законодательную палату Олий Мажлиса пройдут на основе смешанной мажоритарно-пропорциональной системы. В соответствии с ней 75 депутатов нижней палаты парламента будут избраны от одномандатных округов по мажоритарной системе, остальные 75 – по пропорциональной (на основе голосов, отданных политическим партиям).

Согласно Всеобщей декларации прав человека, воля народа должна быть основой власти правительства и находить выражение в периодических выборах, которые являются механизмом народовластия, главной формой проявления суверенитета народа как источника власти. Это единственная форма реального участия большинства граждан в политике, которая позволяет осуществлять наибольшее влияние на власть – либо сохранять, либо сменять



система должна содержать возможности ее постоянного обновления. Поэтому избирательные системы и процессы считаются главной характеристикой демократии.

Исследователи пришли к выводу, что идеальной избирательной системы не существует,

При смешанной избирательной системе часть мандатов (мест) в представительный орган власти распределяется по мажоритарной системе, а часть – по пропорциональной.

В декабре 2023 года вступил в силу Закон «О внесении изменений и дополнений в некоторые



За годы независимости изменились порядок и суть избирательной системы. Происходит постоянное совершенствование и гармонизация избирательного законодательства с учетом международных стандартов. Этим результатом является смешанная избирательная система как разумный баланс в соотношении общенациональных и личных интересов при формировании представительных органов государственной власти. В этом разумном балансе большая ответственность ложится на политические партии как главный субъект избирательного процесса, качество партийных программ, на умение партиями отражать представляемые интересы социальных групп через парламентские структуры, укрепление непосредственной связи между депутатами и избирателями, стимулирование политических партий на поиск и агитацию политических грамотных и активных граждан к вступлению в свои ряды, эффективную организационно-кадровую работу партий, качество принимаемых законов, что позволяет в значительной мере обеспечить процесс укрепления политических партий и стимулировать развитие многопартийности.

В конечном итоге обеспечение свободы выбора нельзя представить без многопартийной системы, здоровой межпартийной конкуренции, борьбы идей и программ. Сегодня каждая партия стремится получить больше мест в нижней палате. Появилась конкретная цель, стремление к большему влиянию. Политические партии концептуальным образом пересматривают методы и подходы в работе с электоратом, предпринимают меры, направленные на укрепление авторитета для эффективной деятельности по защите интересов соотечественников в парламенте и местных представительных органах власти, о чем свидетельствует стартовавшая в стране избирательная кампания.

Каринэ ДЖАВАКОВА,
доктор философских наук,
профессор,
полковник.



парламенты и правительства, обеспечивать их ответственность перед народом. Благодаря выборам народ имеет возможность на регулярной основе через легальные процедуры корректировать деятельность политических сил.

Избирательная система – это совокупность установленных законом правил, принципов и приемов, с помощью которых определяются результаты голосования и распределяются депутатские мандаты. Именно избирательные системы задают институциональные рамки и в значительной степени определяют конфигурацию парламента и партийной системы. Любая

каждая из известных и широко распространенных в мире систем имеет свои достоинства и недостатки.

Мажоритарная система – это система определения результатов выборов, согласно которой избранным считается кандидат, набравший наибольшее количество голосов по избирательным округам.

Пропорциональная система – это система представительства партий и движений, основанная на том, что каждая партия получает в представительном органе власти (парламенте) число мандатов пропорционально количеству голосов, поданных за партию на выборах.

законодательные акты, направленные на дальнейшее совершенствование порядка проведения выборов и референдумов», в соответствии с которым Узбекистан перешел к смешанной избирательной системе.

Смешанная система – это сочетание преимуществ мажоритарной и пропорциональной систем. Она предоставляет оптимальную систему заполнения вакантных мест депутатов из зарегистрированных списков политических партий, представленных на выборах, что значительно сокращает расходы средств Государственного бюджета на организацию и проведение дополнительных выборов.



«QUTADG'U BILIG»DA SIHATLIK SIRLARI

O'z davrining yetuk mutafakkiri, chuqur bilim sohibi Yusuf Xos Hojib ayni kunlarda bitilganiga 955 yil to'lgan «Qutadg'u bilig» asarida tibbiyot, falakiyot, tarix, tabiat, geografiya, riyoziyot, handasa, falsafa, adabiyot, ta'lim-tarbiya, diplomatiya, fiqh kabi ko'plab sohalarga oid fikrlarni bayon etib, faylasuf va qomusiy olim sifatida o'zini namoyon etgan.



Shoir pand-nasihat ruhida yozilgan, bir qancha fan sohalari o'zida mujassam etgan va shuning uchun ham muhim manba hisoblanadigan didaktik asarida inson tabiati, mijozning salomatlikka ta'siri masalalariga ham alohida e'tibor qaratadi. Xususan, unda olam to'rt unsur – o't, suv, havo va tuproq yoki issiq, sovuq, ho'l va quruqdan iborat, degan falsafiy qarash ilgari surilib, insonning sihat-salomatligi, yoshi, ovqatlanishi va jismoniy tarbiyasi haqida qimmatli mulohazalar bildirilgan.

Adib har bir odam yoshiga qarab harakat qilishi, yemak turlarini tanlashi, o'z organizmini suv va jismoniy tarbiya bilan chiniqtirib borishi lozimligini ta'kidlarkan, bu bilan kasalliklarning oldini olish mumkinligini, odam faqat dori-darmonlarning o'zidagina umid qilmasdan, parhez yo'li bilan davolanishga ham harakat qilishi kerakligini uqtiradi.

Muallifning fikricha, mijoz inson hayotida muhim ahamiyatga egadir. Binobarin, har bir odam o'z mijoziga qarab ovqatlanishi lozim, ya'ni «Avval mijozni bilish shart, (so'ng) shunga yarasha (ovqat) yesa bo'ladi, mijozga to'g'ri kelmaydigan (ovqat)ni qo'yish kerak, o'yla». Yusuf Xos Hojib bu haqda fikr bildirarkan, bir qadar qat'iyroq va keskinroq mulohazalarni bayon qiladi. Ya'ni, qirq

yil yashab o'z mijozini bilmagan insonni hayvonga qiyos qiladi. Shundan so'ng inson «issiqlik» va «sovuqlik» tushunchalarining mohiyatini yaxshi bilishi, issiqligi oshganda, sovuqlikni oshiradigan, aksincha, sovuqlik oshganda, issiqlikni ko'taradigan taomlarni tanovul qilishi lozimligini aytgan: «Issiqlik oshsa, darhol o'zing sovuqlik ichib yengillash, sovuqlik oshadigan bo'lsa, issiqlik bilan tuzat».

Yusuf Xos Hojibning tib ilmidan yaxshigina boxabarligini shundan ham bilsa bo'ladi, u quruq sovuqlik (quruq issiqlik) yoki ho'l sovuqlik (ho'l issiqlik) tushunchalarini farqlay olgan. Uning fikricha, inson o'z mijozni qandayligini aniq bilmagan taqdirda, issiqlik yoki sovuqlik o'rtasidagi bir me'yorga amal qilishi lozim.

Turkiy tildagi ilk badiiy doston bo'lgan «Qutadg'u bilig»da qish va bahor so'zlari ramziy ma'noda inson umrini ifoda etib kelgan. Bu qiyos mumtoz adabiyotda birinchi marta mazkur asarda tilga olingani ham e'tiborga molikdir. Unda insonning yigitlik yoshi yoz fasliga muqoyasa qilinadi. Bu yerda yana bir jihatga ahamiyat berish kerakki, qadimgi bitiklarda, shu jumladan, «Qutadg'u bilig»da ham «yoz» so'zi asosan «bahor» ma'nosida qo'llangan. Inson umrining bahori, ya'ni yigitlik davrida sovuqlik iste'mol qilishi, natijada qonning me'yoriyligiga

erishishi mumkinligi qayd etilgan: «Yigit yoshida bo'lsang, fasl(ing) bahor bo'lsa, sovuqlik (narsalarni) iste'mol qilgin, qoningni ravon qiladi».

Odamning yoshi oltmishdan oshgan bo'lsa, uning davri qish mavsumiga qiyos qilinadi. Yosh oltmishga borib, umrning qish fasli yaqinlashganda, issiq taomlar iste'mol qilish kerakligi aytilgan: «Yoshing oltmish (va undan ortiq) bo'lsa, mavsuming qish bo'lsa (ya'ni, qish mavsumi bo'lsa), issiqlik iste'mol qil, sovuqlik iste'mol qilma».

«Qutadg'u bilig»da mijozning inson yoshiga bog'liqligi, bu ikki jihatning ayni paytda tush ko'rishga ham ta'siri borligi chiroyli bir tarzda ifoda etilgan. Adibning fikricha, kishi yaxshi (yengil, oson hazm bo'ladigan) yegulik yesa, tushi yaxshi bo'ladi, aksincha, hazmi og'ir ovqat yesa, yomon tush ko'radi.

Bugungi kunda zamonaviy tabobatda salomatlik omillaridan biri sifatida qaralayotgan ovqatni sovuq holda tanovul qilish, issiq holatda yemaslik, issiq taomni puflamaslik, taomni mayda chaynab yeyish masalalariga Yusuf Xos Hojib XI asrdayoq e'tibor qaratgan: «Nima olsang tishla, maydalab chayna, sen issiq oshni og'zing bilan puflama».

Ortiqcha vazn eng katta muammolardan biri bo'lgan hozirgi kunda taomni iloji bo-

richa kam tanovul qilish salomatlik garovi ekanligi bot-bot aytilmoqda. Yusuf Xos Hojib ham o'z davrida ko'p ovqat iste'mol qiluvchi kishi ko'p kasalliklarga chalinishi haqidagi fikrlarini bayon qilgan va bu qarashlar ayni vaqtda o'z isbotini topmoqda. Uning uqti-rishicha, ko'p ovqat yeyuvchilarning taomi badhazm bo'ladi, ovqati badhazm kishi esa doim dardmand bo'ladi.

Adib insondagi barcha dard tomoqdan kiradi, shuning uchun ham tomoqni, ya'ni nafsni ehtiyot qilish kerak, deydi. Muallif ta'kidlagan «dard-u kasallikdan qochadigan, sihat-salomatlik istagan inson «oz» deb atalgan dorini iste'mol qilishi, farog'at yoki osoyishtalik tilasa, «til» deb atalgan go'shtni yeyishi kerak»ligi tabobat borasidagi muhim ma'lumotlardan biri sanaladi.

Xulosa o'rnida shuni ta'kidlash joizki, chinakam badiiy asar insonga faqat estetik zavq beruvchi vositagina emas, balki uning kundalik hayotidagi ko'plab jumboq va muammolarga yechim ko'rsatuvchi nodir manba hamdir. Milliy merosimizning nodir namunalaridan biri bo'lgan «Qutadg'u bilig» kabi mumtoz qomusiy asarlarni mutolaa qilganda bunga qayta-qayta amin bo'lamiz.

Shohruh-Mirzo JO'RAYEV,
Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti o'qituvchisi.

USTOZ MURUVVATLI BO'LSA...

Bir umr o'qituvchilik qilgan Qobiljon aka va Maharamxon opa o'g'li Ilhomjon ham ularning izidan borib, o'qituvchi bo'ladi, deb o'ylashgandi. Boshida shunday bo'ldi ham. Ilhomjon Andijon davlat chet tillar pedagogika institutini tamomlagach, ikki yil qishloq maktabida rus tili o'qituvchisi bo'lib ishladi. Lekin keyin bu yo'l o'ziniki emasligini anglab, Andijon viloyati ichki ishlar organlariga xizmatga kirdi.

Ilhomjon Turg'unov Andijon shahar Ichki ishlar bo'limi profilaktika inspektori etib tayinlandi. Profilaktika katta inspektori, mayor Muhammadali Isakov unga ustozlik qilib, ko'p yillik



tajribasini o'rgatdi va yosh xodimga qiyin paytlarda doimo yordam berdi. Keyinchalik I. Turg'unov Andijon shahar IIB va Andijon tumani IIB Navbatchilik qismlarida inspektor, tezkor navbatchi lavozimlarida ishladi.

Bir yil avval mayor I. Turg'unov Andijon viloyati IIB Tashkiliy boshqar-ma tezkor boshqaruv markazi navbatchilik qismi katta navbatchi inspektor lavozimiga tayinlandi.

Ilhomjon xizmat yillari davomida bir qator munosib shogirdlarni tarbiyaladi. Mayorlar Akmal Turg'unov, Mirzohid Jalilov, safdorlar Shuhratbek Hasanov, Dilmurod Xolmatov va Mirjalol Sobirov shular jumlasidandir.

– Ustozlik nafaqat endigina ish boshlagan xodimlarga kerak, balki xizmatning istalgan bosqichida o'zini jamoaga kerakli his qilishi uchun ushbu tajriba bilan o'rtoqlashayotganlar uchun ham zarur, – deydi mayor I. Turg'unov. – Bu borada omadim keldi: ustozim, profilaktika katta inspektori, mayor Muhammadali Isakovda ustozga xos asosiy fazilatlar – sabr-toqat, chidamlilik, o'ziga bo'lgan ishonch mujassam.

Yuksak axloqiy va ma'naviy fazilatlarini shakllantirishda ustozning shaxsiy namunasi asosiy o'rin tutgan. Uning ustoz sifatidagi ish prinsipi «Bilganingni boshqalarga ham o'rgat» shiori bo'lgan. Men ustozim o'rgatgan har bir narsaga to'liq amal qilaman. O'z shogirdlarimga akalardek munosabatda bo'laman, tajribam

bilan o'rtoqlashaman va qiyin vaziyatlarda qanday harakat qilish kerakligini o'rgatib, zarur maslahatlar beraman.

Boris KLEYMAN, o'z muxbirimiz

Suratda: mayor Ilhomjon Turg'unov shogirdi safdor Mirjalol Sobirov bilan.

Andijon viloyati.

Bog'ot tumani Ichki ishlar bo'limida xodimlarning kasbiy mahorati hamda jangovar shayligini oshirish, dunyoqarashini shakllantirishga alohida e'tibor qaratilgan. Bo'limda bu yo'nalishdagi ishlarni samarali tashkil etishda ustoz-shogird an'anasidan unumli foydalanilyapti.

– Ustoz qanchalik muruvvatli, ma'rifatli bo'lsa, shogird komil in-



son bo'lib voyaga yetadi, – deydi tuman IIB boshlig'ining o'rinbosari, mayor Zafar Bekchanov. – Binobarin, xizmatga yangi qabul qilingan yosh xodimda kasb ko'nikmasini shakllantirishda, faxriylarimizning boy hayotiy tajribasini, ibratli hayot yo'lini kengroq o'rgatib borishida murabbiylarimizning tajribasi muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Bunday mas'uliyatli vazifani amalga oshirishda podpolkovniklar – Bahodir Karimov, Ergash Ollaberganov, mayorlar – Murod Zaripov, Asqar Saidov, Zokir Bakiyev, kapitan Odilbek Jumaniyozov singari ko'plab jonkuyar murabbiylarimiz fidoyilik bilan xizmat qilishmoqda.

Tajribali murabbiy saboqlarini olgan shogird o'zining ezgu va xayrli ishlari bilan uning hayot yo'lini yanada boyitadi. Xalqimizning unga bo'lgan mehr-muruvvatini, ishonchini yanada oshiradi. Tuman ichki ishlar bo'limida xizmat qilayotgan katta leytenantlar – Nodir Qobulov, Sanjar Usmonov, leytenantlar – Zokir Ro'zmetov, Kamron Aminov, Sherzod Ozodov, kichik serjant Akrom Abdullayev kabi ko'plab yosh xodimlar ana shunday e'tirofqa munosib bo'lgan yoshlardir.

– Xizmat faoliyatimni boshlagan dastlabki kunlarda biroz bo'lsa-da, qiyinchiliklarga duch keldim, – deydi tuman IIB JXX HPB huquq-tartibot maskani profilaktika inspektori, leytenant Sherzod Ozodov. – Ana shunday kunlarda ustozing chinakam do'sting, suyan-

chig'ing bo'larkan. Buni xizmat faoliyatim davomida his qildim va ustozimning nasihatlariga, o'g'itlariga qat'iy amal qildim. Natijada ko'plab ma'naviy-ma'rifiy tadbirlarda, ko'rik-tanlovlarda ishtirok etib, ijobiy yutuqlarga erishdim. Bunday yutuqlarni qo'lga kiritishimda ustozim, mayor Murod Zaripovning munosib hissasi bor.

Ichki ishlar bo'limida boy hayotiy tajribaga ega bo'lgan ustoz-murabbiylarning yosh xodimlar bilan o'zaro hamkorligi yaxshi yo'lga qo'yilgani bois barcha sohaviy xizmatlarda ijobiy yutuqlarga erishilmoqda.

Xudoybergan JABBOROV, o'z muxbirimiz.

Xorazm viloyati.

Buxoro viloyati IIB JXX JTSB PPX batalyoni maxsus otryad komandiri o'rinbosari, podpolkovnik Huseynjon Fayziyev haqida so'z borsa, xodimlar uning jinoyatlarni tezkorlikda ochish mahoratiga qoyil qolishadi.

Elyor (ismlar o'zgartirildi) har doimgidek ertalab savdo do'konini ochar, atrofiga suv separ va mahsulotlarini birma-bir ko'zdan kechirardi. Bugun ham shunday qildi. Ikki-uch mijoz do'konga kirganini hisobga olmaganda, deyarli savdo bo'lmagandi. Shu payt uyali telefoni jiringlab qoldi. Qarasa, xotining raqami. U shifokor ko'rigiga bormoqchi ekan. Shu bois avtomashinasi bilan kelib uni oilaviy poliklinikaga olib borishini tayinladi. Elyor shoshilganidan savdo do'koni tashqarisidagi avtomashinalarning ehtiyot qismlarini ichkariga kiritmay, do'kon eshigini qulfladi. «Tezda boraman-u, kelaman», deb o'yladi. O'ylaganiday bo'ldi. Biroq ehtiyot qismlar kamayganini ko'rdi. So'ngra Buxoro shahar IIOFMBga ariza bilan murojaat qildi. Zudlik bilan tergov-tezkor guruhi va shu hududda xizmat o'tayotgan PPX batalyoni maxsus otryad xodimlari voqea joyiga yetib kelishdi.

Olib borilgan tergov-qidiruv va surishtiruv tadbirlari natijasida Gazli



shohko'chasida yashovchi X.T.ning qo'shnilari uning uyiga aynan ehtiyot qismlarini olib kirganini aytib qolishdi. Podpolkovnik H. Fayziyev hamkasblari bilan uning uyiga borganida, xonadon sohibining rangi oqarib ketdi. Chunki o'g'irlangan narsalar «osh bo'lmasdan» fosh etilgandi.

Podpolkovnik H. Fayziyev xodimlar xizmat olib borayotgan hududni ko'zdan kechirib, ular bilan fuqarolarga yaxshi muomalada bo'lish hamda hushyorlikni oshirish borasida suhbatlashib qaytayotganida, bekatda turgan

kimsani kimgadir o'xshatadi. U viloyat MIB tomonidan qidiruv e'lon qilingan o'lollik S.Sh. edi. Osoyishtalik posboni tezkor qaror qabul qilib, uni qo'lga oldi va IIV JIED 6-mintaqaviy hudud 4-sonli Tergov hibsxonasiga topshirdi.

Tajribali otryad komandiri o'rinbosari, podpolkovnik H. Fayziyev uzoq yillik xizmati davomida bu kabi ko'plab jinoyatlarning «issiq izida» fosh etilishida faol ishtirok etib kelyapti. Bundan tashqari, jinoyat sodir qilib, yashirib yurgan qidiruvdagi shaxsni tergov organlariga topshirishda hamda bedarak

yo'qolgan shaxsni aniqlab, yaqinlariga qaytarishda ham munosib hissasi bor.

Podpolkovnik Huseynjon Fayziyev avvalo ustozlari, iste'fodagi podpolkovniklar Sadridin Aslonov, Faxriddin Zokirov hamda polkovnik Karomat Rajabov va boshqa tajribali insonlardan kasbning sir-sinoatini o'rgandi. 2010-yili «Jasorat» medali bilan taqdirlandi. Qolaversa, yosh xodimlarga murabbiylik qilib, uning tarbiyasini olgan xodimlar talaygina.

– Xizmat faoliyatim davomida Huseynjon akaning o'g'itlariga amal qilib kam bo'lmadim, – deydi safdor Begzod Bo'stonov. – Ustoz bizga jinoyatni ochishda, avvalo, nimalarga e'tibor berishimizni doimo uqtirib, maslahatlar berib keladi. Yana jangovar, taktik o'quv mashg'ulotlarni mahorat bilan olib boradi. Ayniqsa, ommaviy tartibsizlikni bartaraf etishdagi tajribalari bizga dasturilamal bo'lmoqda.

Huseynjon Fayziyev nafaqat o'z kasbi, balki namunali oilasi bilan ham ko'pchilikka o'rnak. Turmush o'rtog'i Farida Jumayeva bilan oila qo'rg'oni-da o'stirgan farzandlari Shohruhjon va Shohinabonu bobo-yu ona kasbini tanlab, o'qituvchilik qilishmoqda.

Mirzoqul AHADOV, o'z muxbirimiz.

Buxoro viloyati.



■ Ферганская область

УЧЕБНЫЕ СБОРЫ ПРОШЛИ УСПЕШНО



Во исполнение задач, обозначенных на расширенном заседании Совета безопасности, состоявшемся 12 января 2024 года под председательством Президента страны, а также в целях воспитания подшефной молодежи в духе патриотизма, формирования у них чувства сопричастности к жизни общества и уважительного отношения к законам, в Ферганской области организованы военно-учебные сборы «Молодые патриоты Нового Узбекистана».



На сборы привлечены 47 молодых людей из Куштепинского района, 36 из города Маргилана и 50 – из Ферганы, всего 133 участника из числа неорганизованной молодежи. Занятия проводили преподаватели Академии МВД, Ферганского академического лицея МВД, квалифицированные специалисты органов внутренних дел Ферганской области.

Были прочитаны лекции на темы «Сущность и содержание понятий «Родина» и «чувство сопричастно-

сти» и их место в судьбе человека», «Самосознание – основа духовного совершенствования», «Жизнь и деятельность великих предков», «Влияние киберугроз в виртуальном пространстве на сознание молодежи и их отрицательные последствия», «Независимость – возможность для реализации потенциала молодежи», «Значение изучения иностранных языков».

По окончании учебных занятий были показаны сценические постановки в

исполнении актеров Ферганского областного театра музыкальной драмы.

Состоялась встреча с руководителями секторов Куштепинского района, Маргилана и Ферганы. Участники получили ответы на интересующие их вопросы, касающиеся возможностей, предоставляемых в сфере образования, обучения профессии, трудоустройства и др. Даны поручения по решению проблем, поднятых на встрече.

Был организован соц-опрос. По итогам анализа, более 50 человек получили направления на обучение востребованным профессиям, 5 человек – для поступления в высшие учебные заведения, 2 человека – на лечение, 4 человека – в спортивные секции.

Руководители секторов дали консультации относительно возможностей моноцентров, о наличии свободных рабочих мест, кредитных ресурсов для налаживания предпринимательства.

Консультации также получили те, кто намерен

посвятить себя военной службе или службе в органах внутренних дел.

На мероприятии, посвященном завершению учебных сборов, выступил начальник Ферганского областного УВД генерал-майор Азизбек Икрамов, который остановился на мерах, направленных на всестороннее воспитание подрастающего поколения.

Десять активных участников удостоились благодарственных писем.

Абдусит СИДИКОВ,
соб. корр.

★ Указ и его исполнение

ЖИЗНЬ С ЧИСТОГО ЛИСТА



В числе освобожденных от отбывания наказания в соответствии с Указом Президента страны «О помиловании группы лиц, отбывающих срок наказания, чистосердечно вставших на путь исправления» – жительница Яшнабадского района города Ташкента Екатерина Попкова.

– За совершенное противоправное деяние понесла уголовное наказание, – говорит Е. Попкова. – Благодарна главе государства за то, что мне предоставлена возможность начать жизнь с чистого листа.

Руководитель сектора – начальник ОВД района, сотрудники отдела пробации, хокимията, представители махалли встретились с Екатериной. Она сообщила, что намерена обучиться востребованной профессии и зарабатывать на

жизнь честным трудом. Ей выдано направление на курсы бухгалтерии.

Важно сделать правильные выводы из горьких уроков, найти в себе силы вернуться к нормальной жизни, встать на путь исправления. Верим, что это желание Екатерины искреннее. Только трудом можно достичь благополучной жизни, вернуть добрую репутацию.

Адолат ФАЙЗИЕВА,
соб. корр.

г. Ташкент.

O'tkir Mengliyev:

DADAM ICHKI ISHLARDA ISHLASHIMNI ISTAGAN...

O'zbek Milliy akademik drama teatri aktyori O'tkir Mengliyev 1977-yil 15-dekabrda Surxondaryo viloyati Termiz shahrida tug'ilgan. Mannon Uyg'ur nomidagi Toshkent davlat teatr va rassomchilik institutini tamomlagan. Ilk ijro etgan roli – Shavkat Mahbubov rejissyorligida suratga olingan «Sardor» serialidagi «serjant Eshjonov» obrazi. Bundan tashqari, ko'plab spektakllarda ham o'z mahoratini ko'rsata olgan. Jumladan, «Abay»da Ko'kboy, «Kunduzsiz kechalar»da rais, «Jaloliddin Manguberdi»da Birka No'yonni gavalantirgan.

– O'tkir aka, sizni mahoratli aktyor sifatida yaxshi tanimiz. Oila a'zolaringiz ichida ham shu soha vakillari bormi?

– Yashirib nima qildim, to'g'risi, oilamizda san'atga aloqador insonning o'zi yo'q. Bobom 97 yoshda. Ona tili va adabiyot fani o'qituvchisi bo'lgan. U kishi hozir ham men bilmagan dostonlar, she'rlar-u monologlarni aytib berib, kaminani yaxshigina uyaltirib qo'yadi. Demak, san'at va adabiyot bir-biriga yaqinligi hisobiga ko'proq bobomga tortgan bo'lsam kerak. Bobojonim dutor chertib qo'shiq xirgoyi qilishni ham xush ko'radi. Mening san'at vakili bo'lishimni juda istagan. Hozirgacha, oynai jahon orqali rollarimni mag'rurlanib ko'radilar. Eng katta nevaralariman. Ikki ukam va ikki singlim bor. Otam haydovchi, onam tikuvchi bo'lgan. Lekin barcha farzandlarini ziyoli qilishdi. Oddiy oilamiz. Dadam rahmatli san'at sohasiga kirishimga qarshi bo'lgan. Tarix fakultetida o'qib, ichki ishlar xodimi bo'lishimni istardi. Negaki, ko'p qarindosh-yaqinlarimiz shu tizimda xizmat olib borishgan. Biroq shaxsiy qiziqishlarim ustun kelib, san'at oliygohiga o'qishga topshirganman. Boshida xohlamagan bo'lsalar-da, filmlarda chiqqanimni ko'rib, keyinchalik dadam bu qarorimdan baribir xursand bo'lgan.

– «Sardor» seriali orqali katta ijodga qadam qo'ygansiz. Xo'sh, debyutni harbiylikdan boshlash qanday kechdi?

– San'at oliygohining 3-bosqichida o'qiyotgan paytlarim. «O'zbekfilm» pavilyoni oldida kastingga e'lon joylangandi. Ko'pchilik bo'lib o'zimizni sinab ko'rishga qaror qildik. Rejissyor birin-ketin savollar berishni boshladi. «Nechanchi kurssiz?», «Qayerliksiz?», «Xizmatga borganmisiz?» singari. Birma-bir javob qaytarganimdan keyin: «Erta mobodo soat o'nlarda kela olmasizmi?» dedi. Shu tariqa, barcha sinovlardan muvaffaqiyatli o'tib, 25 kishining ichidan tanlab olinganman. Ochig'i, o'zim o'sha



paytda ham, keyinchalik ham harbiy xizmatda bo'lmaganman. Harbiy rolini o'ynab berishim uchun Chirchiqda bir hafta ertalabdan kechgacha saf maydonida shug'ullantirishgan. Yuqorida aytganimdek, xizmatni o'tamagan bo'lsam-da, Qurolli kuchlarda, huquq-tartibot organlarida ishlayotganlarning faoliyati naqadar mashaqqatli va sharafli ekanligini ana o'shanda anglaganman. «Sardor»dagi rolingiz orqali havas qilib, harbiy bo'ldim, ichki ishlar organlarida podpolkovnik, mayor bo'ldim», deganlar ko'p uchragan. Demak, mehnatlarimiz beiz ketmabdi...

– Tan olish kerak, harbiy rolini qoyilmaqom ijro etgansiz. Keyingi ijod jarayoningizda o'zingizni ichki ishlar organi xodimi sifatida ham ko'ra olasizmi?

– Albatta, ichki ishlar organlarida rahbar xodim rolini berishsa, jon deb o'ynagan bo'lardim. Fe'l-atvorimga har tomonlama to'g'ri keladi. E'tirof etish lozimki, ular haqiqiy qahramonlar. Ularsiz jamiyatda tartib bo'lmaydi. Ular kerak bo'lsa jonini ham ayamaydigan qahramonlardir.

Aslida biz san'at tili bilan aytganda, «tipaj aktyorlar» sirasiga kiramiz. Rejissyorlar xohlagan obrazlarni yasashlari mumkin bizlardan. Qahri qattiq boyvachchami, komedik obrazlarni, istalgan xarakterdagi qahramonlarga mos tushib ketaveramiz. Shu sohada yurganimga 25 yil bo'ldi. Xalqimiz biz san'atkorlarni yaxshi ko'radi. O'ynagan rollarimizdan iqtiboslar keltirishadi. Rasmlarga tushishadi, «tirigini ko'rib xursand bo'ldik» deyishadi. Ozmi, ko'pmi e'tibor baribir ko'ngilni shod qilarkan.

– «Kichkina odamlar»dagi rolingiz muvaffaqiyatli chiqqaning asosiy sabablari nimada deb o'ylaysiz?

– Film uchta postanovkadan iborat bo'lib, unda uch xil voqealar rivoji tasvirlab beriladi. Men bevosita qatnashgan epizod filmning «Hazil» deb nomlangan postanovkasidan o'rin olgan. Bunda bironing haqqi baribir bironing yuqmasligi, hammasini Alloh ko'rib turganligi chiroyli ma'no chiqarilgan holda ochib berilgan.

Aslida men Sodiq rolini o'ynashim kerak edi. Lekin senariyni o'qisam menga, fe'l-atvorimga mutlaqo teskariligi ayon bo'lgan. Bilsangiz, Isomiddinning «zapravka»lari, mol-dunyosi ko'p bo'ladi. Hatto sharros yomg'irdayam xotiniga gul olib borishni kanda qilmaydi. Film rejissyori, rahmatli Hotam aka Fayziyevdan menga ko'proq boylar obrazi mos tushishi, shu sababli Sodiq taksichi emas, Isomiddin boy roliga sinab ko'rishlarini so'raganman. Ikkala obrazga ham qaytadan sinov olishadigan bo'lishdi. To'g'risi, Sodiq roliga nomiga yondashib, o'zim ich-ichimdan istagan Isomiddin obrazini butun vujudim bilan o'ynab berdim. Oradan sal vaqt o'tdi. Uzil-kesil o'zgarimas, qat'iy qaror bilan Sodiq emas, Isomiddin roliga tasdiqlanganimni aytishdi. Muvaffaqiyatning asosiy sababi, mening istaklarim amalga oshganida bo'lsa kerak.

– Hayotdagi eng yaxshi ko'rgan ibora yoki shioringiz bormi?

– «Teatr va kino – mening hayotim!» Kino hamda sahnani yaxshi ko'raman va qizg'anaman. Bu yerda professionallar o'ynashi kerak deb hisoblayman. Balkim tanish-bilishchilikdir yoki boshqa sabablar bor. Aksar hollarda, kinoga mutlaqo aloqasi yo'q shaxslar rol o'ynayotganini ko'rib odamning g'ashi keladi. 6–7 yillab o'qib, tayyorlanib, professionallikka chiqqanlar esa bir chetda qolishi meni qattiq ranjitadi. Eng qizig'i, kinodan xabari yo'qlar baribir professionallarni tushunib rol ijro qilolmaydi. Professionallar ular bilan rol o'ynasa, tushuntirguncha qiynalib ketadi. Hamma o'z ishini qilganida qaniydi.

– Mazmunli suhbatingiz uchun tashakkur!

Abror POYONOV suhbatlashdi.



KASB FIDOYILARI

UMR BEZAGI

Shodiyor Ibragimov Jizzax viloyatining Forish tumanida tug'ilgan. Uning otasi qishloq xo'jaligi xodimi bo'lgani uchun yo'llanma asosida Sirdaryo viloyatiga oilasi bilan ko'chib keladi. Bu paytda endigina tetapoya bo'lgan Shodiyor Sirdaryoning keng dalalarida chopqillab ulg'aydi...

O'z oldiga katta maqsadlarni qo'ygan Shodiyor kelgusida huquqshunos bo'lish istagi bilan 1998-yili Samarqand davlat universitetiga sirtidan o'qishga kirdi. O'sha yili yana bir orzusi ro'yobga chiqdi: u Guliston shahar IIB 2-mavze profilaktika inspektori lavozimiga xizmatga qabul qilindi.

Lavhamiz qahramoni yangi vazifa, yangi mas'uliyat oldida dovdirab qolmadi. O'sha yillar Guliston shahri markazidagi ushbu mavzeda ko'plab millat vakillari istiqomat qilar, bu kriminogen vaziyatga salbiy ta'sir etardi. Ichkilikbozlik, bezorilikka qarshi kurashish asosiy vazifalardan biri hisoblanardi. Yosh leytenant mazkur vazifani a'lo darajada uddaladi. 2000-yilda uni Sirdaryo tumani IIB voyaga yetmaganlar masalalari bo'yicha katta inspektori lavozimiga o'tkazishdi. Uning bu lavozimdagi faoliyati ham muvaffaqiyatli kechdi.

2002-yilda Guliston shahar IIB JQB katta tezkor vakili lavozimida ish boshlagan Shodiyor Ibragimov ko'plab jinoyatlarni ochishda jonbozlik ko'rsatdi. O'z ishining ustasi bo'lib yetishishida viloyat IIB JQBda faoliyat ko'rsatgan ustozlari – podpolkovniklar Rahim Aripov va Haydar Mirzabekov katta o'rin tutdi. Ustozlarning o'gitidan chiqmagan Shodiyor uyushgan jinoyatchilikka qarshi kurashishdagi muvaffaqiyatlarga salmoqli hissa qo'shdi.

O'shanda firibgarlik, tovlamachilik bilan shug'ullangan jinoiy guruhlardan birini fosh etish oson kechmayotgandi. Shodiyor tezkor ma'lumotlarni tahlil qilish orqali jinoyatchilarning iziga tushgan edi. Nihoyat, 2002-yilning kuzida Gulistondagi yog'-ekstrakt zavodi yaqinida o'tkazilgan operatsiyada tovlamachilar qo'lga olindi.



Shodiyor Ibragimov xizmat pillapoyalaridan o'sishda davom etdi. 2004-yilda Mirzaobod tumani IIB boshlig'ining birinchi o'rinbosari, 2006-yilda tuman IIB boshlig'i lavozimiga tayinlandi. 2009–2012-yillarda esa Sayxunobod, Guliston tumanlarida IIB boshlig'i lavozimida faoliyat ko'rsatdi. Keyinchalik viloyat IIB tizimida turli lavozimlarda ishlagan Shodiyor Ibragimov ko'plab shogirdlarni tarbiyaladi. O'z vaqtida Oqoltin tumani IIB boshlig'i lavozimida ishlagan podpolkovnik Jahongir Haydarov, Sirdaryo, Sardoba tumanlari IIB boshlig'i lavozimlarida faoliyat ko'rsatgan podpolkovnik Rustam Qora-bekovlar shular jumlasidandir.

– Shodiyor Ibragimov o'ta mas'uliyatli xodim, – deydi viloyat IIB JQB tezkor vakili, podpolkovnik Rustam Qora-bekov. – Shuning uchun ham uni ko'pchilik hurmat qiladi. U biz, shogirdlar ichki ishlar organi xodimi bo'lib shakllanishimizga qimmatli maslahatlari, yo'l-yo'riqlari bilan katta hissa qo'shgan.

Hozirgi vaqtda podpolkovnik Sh.Ibragimov Guliston shahridagi 3-sonli IIBda boshliq lavozimida xizmat qilmoqda. O'n olti nafar xodim faoliyat ko'rsatadigan mazkur bo'lim xizmat qiladigan hududda 6 ta mahalla bor. Ushbu mahallalarning barchasi «yashil hudud» toifasida.

U baxtli oila sohibi. Turmush o'rtog'i bilan 5 nafar farzandni voyaga yetkazdi. 2 o'g'il ota izidan ketgan. Ulardan kattasi Shahboz Usmonov viloyat IIB JXX JTSB PPX safdor xodimi, ikkinchi o'g'il Abbas esa IIV Akademiyasi ikkinchi bosqich kursanti.

– Biz otam bilan faxrlanamiz, – deydi Shahboz Usmonov. – Undan o'rnak olishga, hayotiy va kasbiy tajribasidan ko'proq bahramand bo'lishga harakat qilamiz.

Darhaqiqat, o'z umrini el-yurt osoyishtaligi yo'lga sarflagan insonning ezgu xislatlari ko'pchilik uchun namunadir.

Abdurahmon MUSTAFOQULOV,
o'z muxbirimiz.

Sirdaryo viloyati.

MUHIMI – MEHR VA E'TIBOR

Axborjon so'lim Farg'onaning Quva tumanida tavallud topgan. Otasi Anvarjon aka qo'li gul usta, onasi Mahfuzaxon opa maktabda o'qituvchilik qilib, yosh avlodga ta'lim-tarbiya bergan. Anvarjon aka hozirda kasalligi tufayli nafaqada, Mahfuzaxon opa yaqinda pensiyaga chiqdi. Ziyoli onaning farzandi ham ilmi bo'lishga, yaxshi o'qishga intildi. Maktabni a'lo baholarga bitirib, Farg'ona politexnika institutiga qabul qilindi.

Ilm olishga qiziqqan va o'zidagi bilimlarni yoshlarga ulashishni maqsad qilgan Axborjon oliygohda matematika va mental arifmetika bo'yicha repetitorlik qilardi. Institutni tugatgandan so'ng, o'zi alohida o'quv markazi ochib, ishini kengaytirgan holda davom ettira boshladi. Oradan ikki-uch yil o'tganidan so'ng, u ichki ishlar organlariga qabul bo'layotgani to'g'risidagi e'londan xabar topadi. Bolalik orzusi ushalishi umidida hujjatlarini Toshkent shahar IIBBga topshiradi.

Barcha sinovlarni a'lo baholarga topshirib, nomzodlar orasida birinchi o'rinni egalladi va xizmatga qabul qilindi. Xizmat faoliyatini Chilonzor tumani IIOFMB JTSB PPX 1-otryadi safdor xodimi sifatida boshladi.

– Ikki nafar – bir o'g'il, bir qiz farzandim bor, – deydi Mahfuzaxon opa. – O'g'lim Axborjonni uylantirganimizda qizim ikkita bo'ldi. Qizimning ham,

kelinimning ham ismi – Malikaxon. Ikki malikaning onasiman. O'g'limga yoshligida shifokor bo'lsang-chi, de-



gan taklifni berganimda unamagan. Uning matematikaga bo'lgan qiziqishi va yuragining tubida ichki ishlar organi xodimi bo'lish ishtiyoqi kuchlilik qilib, dastlab institutda qurilish yo'nalishida o'qisa-da, keyinchalik baribir egniga forma kiyishga ahd qildi. Kasbini juda yaxshi ko'radi. Bunga rahbarlari bilan gaplashganimda, Axborjonga

bergan bahosidan yana bir bor amin bo'ldim. Shunday yurt osoyishtaligini ta'minlayotgan farzandim borligidan faxrlanam.

Safdor Axborjon Ahmedov xizmatda yaxshi natijalarga erishish yo'lida tinimsiz harakat qilmoqda. U yil boshidan buyon 5 ta jinoyatni «issiq izida» ochishga muvaffaq bo'lgan. Jumladan, joriy yilning 25-sentabr kuni taxminan

tonggi soat beshlarda hamkasbi bilan xizmat vazifasini olib borayotganida «Spark» rusumli avtoulurdagi fuqaro shubha uyg'otadi. Xolislar ishtirokida tekshirib ko'rilganida, avtomashina salonidan oq rangli polietilen paketga o'ralgan jigar rangli, o'tkir hidli, saqichsimon modda borligi aniqlanib, tegishli tartibda rasmiylashtirilgan. Toshkent shahar IIBB EKMning xulosasiga ko'ra, fuqaro Y.T.dan olingan bu narsa «gashish» ekanligi ma'lum bo'ldi.

Lavhamiz qahramonining dilbandlari – Shohjahon, Xoqon Ahmed va Amir Mehmet dadalari ishdan keldi deguncha uning bosh kiyimini birma-bir kiyishib, qo'llarini chakkasiga qo'ygan-cha u yoqdan-bu yoqqa shaxdam qadamlar bilan yurishadi. Ayniqsa,



Shohjahon o'rtoqlariga katta bo'lsa, ichki ishlar organi xodimi bo'lishini aytib, maqtanib yuradi.

Ichki ishlar organi xodimining oilasida, eng avvalo, o'zaro qaynoq mehr, g'amxo'rlik va e'tibor bo'lsa, ro'zg'orida baraka bo'ladi, tinch-tovulik hukmronlik qiladi. Eng asosiysi, uning xizmati bekam-ko'st davom etib, ko'zlagan maqsadlariga erishishi oson kechadi.

Sarvar SOBIROV,
o'z muxbirimiz.

Toshkent shahri.



Ветераны — наша гордость

Одним из таких сотрудников является капитан в отставке Каюмжан Шокиров, посвятивший десятилетия службе в органах внутренних дел. За плечами Каюмжана ака долгая, насыщенная событиями жизнь. После окончания Андижанского государственного педагогического института, он посвятил себя благородному и столь нужному во все времена делу — охране общественного порядка и общественной безопасности граждан.

Образованный, энергичный, ответственный молодой человек по своим качествам вполне соответствовал тому, чтобы стать офицером. Каюмжана Шокирова направили на специальные курсы в Ташкент. После окончания учебы был инспектором по делам несовершеннолетних Кургантепинского РОВД, старшим инспектором оперативной дежурной части Джалакудукского РОВД. В отчетах о его служебной деятельности всегда значились слова о безупречном исполнении служебного долга.

Каюмжан ака с супругой Кароматхон воспитали четверых детей. В настоящее время ветеран окружен заботой тринадцати внуков и двух прав-

нуков. Сотрудники Джалакудукского РОВД вместе с представителями ветеранских организаций регулярно его навещают.

Каюмжан ака воспитал немало достойных учеников, многие из них сейчас на заслуженном отдыхе. Ветеран часто вспоминает

соратников, с которыми пришлось вместе служить. Это подполковники в отставке Юлчибай Муйдинов, братья Шухрат и Равшан Тургуновы, Мамржон Бегалиев, Баходир Мамадалиев.

У Каюмжан ака нет ни одной свободной ми-

нуты. Его график очень плотный. Когда уходил на пенсию, мечтал о тихих, спокойных днях, рыбной ловле, игре на музыкальных инструментах, но... После профессиональной деятельности К. Шокиров с головой окунулся в общественную работу.

ВСЕГДА В СТРОЮ

Личный состав Джалакудукского РОВД помнит и ценит сотрудников, внесших большой вклад в развитие и совершенствование деятельности подразделений и укрепление правопорядка на территории Андижанской области.



Он заместитель председателя Совета ветеранов Джалакудукского РОВД, член примирительной комиссии в махалле поселка нефтяников Южный Аламушук, хранитель музея в школе. Благодаря его стараниям музей пополняется новыми экспонатами.

Кроме того, ветеран частый гость в школах и лицеях не только Джалакудукского района, но и области. Каюмжан ака проводит беседы с молодежью, рассказывает о службе в органах внутренних дел, призывает ребят быть настоящими патриотами своей страны.

— Нужно радоваться каждому прожитому дню, учиться новому, тогда не будет времени скучать, — говорит Каюмжан ака Шокиров.

Борис КЛЕЙМАН,
соб. корр.

На снимке: капитан в отставке Каюмжан Шокиров с учащимися Андижанского академического лицея МВД.

Андижанская область.

Внутренний туризм

СОПРИКОСНОВЕНИЕ С ИСТОРИЕЙ

В очередной раз ветераны органов внутренних дел Ташкентской области получили возможность погрузиться в историю. Группа из 35 человек совершила увлекательное путешествие по Хорезмской области.

— Мы словно перенеслись в прошлое, — делится впечатлениями член Совета ветеранов ГУВД столичной области полковник в отставке Малик Косимов. — Ичан-Кала, включенная в список Всемирного наследия ЮНЕСКО, с ее древними стенами, архитектурными сооружениями, произвела на нас неизгладимое впечатление.



Каждый камень крепости хранит в себе многовековую историю.

— Нас покорило гостеприимство жителей региона, — добавляет полковник в отставке Абдукодир Рахимжонов. — Поездка, организованная по инициативе руководства ГУВД Ташкентской области, стала ярким событием, подарила незабываемые впечатления.

Охунжон МУСТАФОВЕВ,
лейтенант.



ХИЗМАТЛАРДА

ЖИНОЯТНИ ЖИЛОВЛАЁТГАНЛАР

Ўғрилиқ, безорилик, тан жароҳати етказиш ҳамда гиёҳвандлик моддалари билан боғлиқ жиноятларнинг аксарияти тунда рўй беради. Ичкилик, назоратсизлик, мулкни асраш ҳамда фарзанд тарбиясида кузатилаётган камчиликлар ушбу жиноятларга сабаб бўлмоқда.

Шу маънода тезкор қидирув хизмати ходимлари тунги профилактик тадбирларни кучайтиришмоқда. Чунончи, вилоятнинг барча аҳоли манзилларидаги кўчалар ва жамоат жойларда патруль гуруҳлари қаровсиз мулк, чорва моллари ҳамда очиқ қолдирилган автоуловларни эгаларига топшириш, кечаси фаолият кўрсатадиган овқатланиш шохобчалари ва

кўнгилочар масканларда вояга етмаганларнинг ота-оналари ёки васийларсиз бўлишларининг олдини олиш, маст ҳолатдаги шахсларни хушёрхоналарга етказиш чораларини кўришяпти.

Табиийки, тунги хизмат давомида бир қанча жиноятларни очишга муваффақ бўлиняпти. Хусусан, Ғаллаорол туманининг «Бахт» маҳалласида яшовчи М.А. шу ҳудуд-



да истиқомат қилувчи Ғ.Ж.нинг уйида ҳеч ким йўқлигидан фойдаланиб, 8 миллион 10 минг сўм пул ўғирлаган заҳоти қўлга олинди. Худди шундай,

ўша тунда соҳа вакиллари Зарбдор туманининг «Тозауруғ» маҳалласи ҳудудида 12 бош қўйни кўриб қолишди. Чорва моллари шу тумanning «Дўстлик» маҳалласида яшовчи Д.Э.га тегишли эканлиги аниқланди ва эгасига топширилди.

Шунингдек, 2 та жиноят фош қилиниб, 1 нафар қидирувдаги шахс қўлга олинди. Кези келганда айтиш керак, ўтган 8 ой давомида вилоят тезкор қидирув хизмати ходимлари томонидан 587 та жиноят фош қилинган.

Мазкур қонунбузарликларнинг 31 таси ўтган йилларда содир қилинган жиноятлардир. Шунингдек, 168 нафар қидирувдаги шахс ушланиб,

26 нафар бедарак йўқолган фуқаро топилган. Бундан ташқари, қонунбузарлардан 65 килограмм 733 грамм миқдорида гиёҳванд моддалар олинди, йўқ қилиш чоралари кўрилди.

Шу билан бирга, профилактик ҳамда жиноятларни фош этишдаги аҳамияти инobatга олинган ҳолда вилоят ҳудудидаги кузатув камераларининг сони 13 мингтага етказилди. Фирибгарлик, кибержиноят ва ўғирликларга қарши тарғибот уюштириш ҳам эътибордан четда қолмаётир.

**Алижон
АБДУСАТТОРОВ,
ўз мухбиримиз.**

Жиззах вилояти.



■ Наманганская область

ЗНАТОК СВОЕГО ДЕЛА

В питомнике отделения кинологии УООП СОБ Наманганского областного УВД содержатся 26 служебных собак. Уход за ними обеспечивает ветеринар-фельдшер отделения старший сержант Ризо Юсупжонов, в случае необходимости лечит их.

В последнее время растет интерес населения к служебным собакам. Идя навстречу пожеланиям граждан, в питомнике дрессируют породистых сторожевых псов, отлично зарекомендовавших себя в охране имущества.

Герой нашей зарисовки в отделении кинологии с 2008 года. За это время накопил богатый опыт, выработал необходимые навыки, в совершенстве освоил специальность. К нему прикреплены молодые сотрудники сержант Дониёр Эгамбердиев и рядовой Хабибулло Жураев. Р. Юсупжонов занимается обучением младших инспекторов-кинологов в ходе учебно-практических занятий.



Недавно младший инспектор-кинолог рядовой Хайрулло Мадрахимов из Туракурганского РОВД обратился к нему за помощью. Дело в том, что его собака по кличке Джек захворала. Несмотря на полночь, Ризо направился в Туракурганский район. Осмотрев служебную собаку, поставил диагноз: в лапах четвероногого помощника застряли микроскопические металлические предметы. Вместе с коллегами Ризо срочно провел операцию. Дал хозяину Джека нужные рекомендации, чтобы в будущем избежать подобного.

За добросовестную службу старший сержант Ризо Юсупжонов неоднократно награждался почетными грамотами.

**Жасур БЕКМИРЗАЕВ,
капитан.**



TA'LIM MASKANLARIDA

MUSIQAGA OSHNO BOLALAR

Yosh avlodda estetik tarbiyani yuksaltirishda musiqa san'ati ulkan ta'sir kuchiga ega bo'lgan tarbiya vositasidir. Zero, insondagi go'zallik tuyg'usini taraqqiy ettirmay turib, ma'naviy barkamollik haqida gapirish noo'rin. Musiqa ana shu nozik tuyg'ularni shakllantirish va tarbiyalash vositasidir.

Nigora Nusratova bir necha yildan buyon IIV Ixtisoslashtirilgan maktab-internatida musiqa fani o'qituvchisi bo'lib ishlab kelmoqda. U kasbiga mehr qo'ygan, yangilikka intiluvchan, bilimli va iqtidorli yosh kadrlardan hisoblanadi. Darslarni doim interfaol metodlardan foydalangan holda o'tishga harakat qiladi. O'z ustida ishlashdan, tajribalarini boyitishdan sira charchamaydi. Shu bois ham uning ko'plab o'quvchilari musiqa tanlovlarida faol ishtirok etib keladi.

– Abu Ali ibn Sino fikricha, musiqa insonda hayotbaxsh, olijanob axloqiy xususiyatlarni rivojlantiradi, u insonga xizmat qiladi, uning intellektual va axloqiy qiyofasini shakllantiradi. Shu bois ham ota-bobolarimiz inson kamoloti, ta'lim-tarbiyasi, go'zal xulq-atvor sohibi bo'lib yetishishida musiqa san'atining katta o'rin tutishiga e'tibor qaratgan, – deydi Nigora Nusratova. – Ibn Sino, Forobiy, Alisher Navoiy va yana boshqa ko'plab ulug' ajdodlarimiz nafaqat musiqa san'ati sirlaridan xabardor bo'lishgan, balki bu sohani kuchli bilganidan musiqa o'z asarlar ham yozib qoldirgan.



Bundan musiqa kishilarni ezgulikka undovchi, ma'naviyatga eltuvchi vosita degan xulosaga kelamiz.

Uning ilmiy taraflariga bir qur nazar tashlaydigan bo'lsak, musiqa psixologiyasida miya yarim-

sharlari qarama-qarshi harakat organlari faoliyatini boshqaradi. Musiqa psixologiyasining asosiy maqsadi – miya faoliyati boshqaruvini yuqori nuqtaga olib chiqishga yordam berishdir. Natijada harakatlar koordinatsiyasi vujudga keladi. Bu esa bir vaqtning o'zida o'ng va chap qo'llarning turlicha funksiyalarni bajarishiga imkon beradi.

Darhaqiqat, psixologlar musiqa bilan muntazam shug'ullangan bolaning lug'aviy boyligi boshqa tengdoshlariga nisbatan yuqori bo'ladi, deb hisoblashadi. Musiqa orqali insonni davolash mumkinligini esa o'tmishda ota-bobolarimiz ham aytib ketgan. Ma'lum bo'lishicha, kuchli va jarangli ovozga ega insonlar jismonan sog'lom hisoblanar ekan. Biror musiqa asbobini chalishni o'rgangan bolaning esa tilshunoslik qobiliyati rivojlanar ekan.

– Men musiqa fanini juda yaxshi ko'raman, – deydi maktab-internatning 8-sinf o'quvchisi Bekshod Yakubov. – Ustozimiz Nigora opa doim har birimizning qiziqishimizni inobatga olgan holda, alohida shug'ullanishdan erinmaydi. O'qituvchi va murabbiylar kuni munosabati bilan ustozimiz boshchiligida katta tadbir o'tkazdik. Men o'zim sevgan, ustozim o'rgatgan qo'shiqlarni jonli ijro etdim. Buning uchun u kishiga minnatdorlik bildiraman.

Albatta, musiqa oshno bo'lib ulg'aygan farzandlarimiz kelajakda qaysi kasbni tanlashidan qat'i nazar, o'z sohasining yetuk mutaxassislari bo'lib yetishishiga ishonchimiz komil.

Adolat FAYZIYEVA,
o'z muxbirimiz.

INSON QADRI UCHUN

FAXRIYLAR HOLIDAN XABAR OLINDI

O'qituvchi va murabbiylar kuni munosabati bilan IIV huzuridagi Jazoni ijro etish departamentining rahbar xodimlari tizimda samarali mehnat qilib, hozirda keksalik gashtini surib kelayotgan ustoz faxriylar holidan xabar olishdi.

Faxriylar yosh xodimlarga o'tgan davr va bugungi kun ichki ishlar organlari xodimlariga yaratib berilgan sharoitlar xususida so'zlab, kasbga sadoqatli bo'lishlari haqi-



da o'zlarining pand-nasihatlarini berishdi. Faxriylarga esdalik sovg'alari topshirildi.

Bu kabi ezgu tadbirlar faxriylarning el-yurt osoyishtaligi yo'lidagi beqiyos xizmatlarini qadrlash bilan birga, yosh xodimlar qalbida ichki ishlar tizimiga bo'lgan hurmat va ehtiromini yanada oshirishga xizmat qiladi.

Shahrizod SHOKIROV,
kapitan.

TADBIR

GIYOHVANDLIK – UMR ZAVOLI

Toshkent davlat iqtisodiyot universitetida Giyohvandlikka qarshi kurashish dolzarb oyligi doirasida tashviqot tadbiri bo'lib o'tdi. Unda Uchtepa tumani IIOFMB boshlig'ining o'rinbosari, podpolkovnik Abdurashid Ochilov, imom-xatib Rahmatullo Mardonov hamda 4-sonli IIB HPB profilaktika katta inspektori, kapitan Muhammadali Egamberdiyevlar ishtirok etishdi.

Talabalarga giyohvandlik moddalari iste'moli va oldisotdisining salbiy oqibatlarini to'g'risida tushunchalar berilib, videorolik namoyish etildi. Shuningdek, buklet, flayerlar ham tarqatildi.

Sarvar SOBIROV,
o'z muxbirimiz.

Toshkent shahri.





Гулнор ЖУМАЕВА,
истеъфодаги подполковник.

ҚАЛБИМ

Нега мудроқ қалбим кузги уйқусин
Ўғирладинг, сокин оромин буздинг?
Намлаб унинг равшан, тиниқ кўзгусин,
Маъсум хаёлларим шамолдек тўздинг?

Баҳор сарофтоби, ёзнинг тафтида
Юрак ёндиргувчи хушчиroyлар бор.
Кечаётган кузнинг қуёш «кафтида»
Қаҳратон дараги, бўлажаги – қор.

Навбаҳор чечаклар гулгун фаслида
Ёшлик ва муҳаббат яшар бегумон.
Олтин куз мевасин сочиб, гаштида –
Ҳорғин дам олади беарз, беармон.

Безовта қилмагин ниҳон тонгларим,
Осуда ҳисларим зинҳор қўзғотма!
Кузда ҳам хазонмас кўнгили боғларим –
Мудроқ қалбимни сен ҳаргиз уйғотма!

ТЎРТЛИК

Муҳаббат меҳварида сен устуну мен остин,
Кўнгилилар ашъориди сен мафтуну мен маҳзун.
Ҳижронлар гулханидан сен бутуну мен кукун,
Тонг ила шом наздида сен бу куну мен у кун.

ФАХРИЙЛАР ИЖОДИДАН

КУЗ ТАРОНАЛАРИ

Ички ишлар органлари фахрийлари орасида ҳам назм бўстонидаги энг сара гуллардан тузилган гулдасталарни ҳамон ўз ўқувчиларига тақдим этаётган ҳамкасбларимиз талайгина. Қуйида уларнинг айрим ижод намуналаридан баҳраманд бўласиз.



Эркинбой РЎЗИБОЕВ,
истеъфодаги катта сержант.

ЭЛИМ ДЕБ ЯША

Кўчсин десанг номинг, диллардан тилга,
Содиқ хизматда бўл, Ватанга, элга,
Ҳамнафас яшагин, халқ билан бирга,
Элим деб, юртим деб, сен ёниб яша.

Сен жондан кечсанг-да, Ватандан кечма,
Ҳаргиз номардларнинг сўзига учма,
Мардлар авлодидан, буни унутма,
Элим деб, юртим деб, сен ёниб яша.

Эркин айтар, фарзанд, оқил инсон бўл,
Ҳаётда танлай бил, одил, тўғри йўл.
Ожизларга мудом чўза билгин қўл,
Элим деб, юртим деб, сен ёниб яша.



ВАТАН

Ватан, она юртим қутлуғ остона,
Айлангансан бугун боғу бўстонга,
Тарихинг сўзласам, сиғмас дostonга,
Ватан сўзи танҳо, кўзга нур-зиё,
Тупроғинг мен учун эрур тўтиё.

Жаннатнинг бирисан, юртим Хоразм,
Қаршингда бош эгиб қиламан таъзим,
Қилсанг ярашади ҳар кун тўй-базм,
Ватан сўзи танҳо, кўзга нур-зиё,
Тупроғинг мен учун эрур тўтиё.

Истиқлол туфайли қайтди ўз тилим,
Омон бўлсин халқим, қора кўзлигим,
Дунёга танилди, бутун ўзбегим,
Ватан сўзи танҳо, кўзга нур-зиё,
Тупроғинг мен учун эрур тўтиё.

Мардларинг бор тунни кунга улаган,
Юртбошим бош юртни Аллоҳ сийлаган,
Эркин сенга мудом тинчлик тилаган,
Ватан сўзи танҳо, кўзга нур-зиё,
Тупроғинг мен учун эрур тўтиё.

МУЛОҲАЗА

ТИЛГА ЭЪТИБОРСИЗЛИК – ЭЛГА ЭЪТИБОРСИЗЛИК

Баъзан кўча-кўйда чала ёки тилимизга зид бўлган сўзлар билан суҳбатлашаётган кишиларга кўзимиз тушади. Ижтимоий тармоқлардаги ёзишмаларни-ку, айтмаса ҳам бўлади. Рост-да, ўзлигимизни унутмоқдамиз. Бугун биз набираларимизнинг қулоғига она тилимизнинг жозибаси, бетакрорлигини қуйиб, шунга яраша она тилимиз ҳақида тушунчалар бериб борсак, ҳеч қаеримиз камаймайди, аксинча, фойдаси тегади.

Бугун фарзандларимизга инглиз ва рус тилларини ўргатяпмиз деб керияпмиз. Бу яхши, албатта. Тил билганнинг фикри теран, дунёқарашини ўзгаради. Ҳаттоки, олимларнинг кейинги йиллардаги тадқиқотлари кўп тилларни билиш кишининг умрини узайтириши ва склероз касаллигидан асрашини кўрсатмоқда. Ҳар бир янги тилни ўрганиш инсон умрини 2–3 фоизга, склерозга чалинишни 5 фоизга пасайтирар экан. Мулоҳазамиз бу ҳақда эмас. Аксинча, она тилимизни бузиб ифодалаётганлар кўпайиб бораётгани хусусида.

Масалан, шаҳар ва туманлар марказидаги кўчаларда ҳанузгача ажнабий тилдаги ҳамда давлат тили қоида талаблари кўпол равишда бузилган ёзувлар, пешлавлар ҳамда нархномаларни кўриб ачинамиз. Айрим аҳоли вакиллари, тадбиркорлар ўзлари билиб-билмай маҳсулотини реклама қилиш, мижозларни чорлаш мақсадида қош қўяман деб, кўз чиқараётганига неча бор гувоҳ бўламиз. Тўғри, Бухоро шаҳри сайёҳлик марказларидан бири бўлгани учун бу ерга ташриф буюрувчи меҳмонларга тушунарли тилда хизматларни тақлиф этиш

нуктаи назаридан ажнабий тилдаги ёзувлар битилгандир. Лекин қонун талабларига кўра, реклама давлат тилидаги муқобили биринчи навбатда ёзилиши керак. Тилини ҳурмат қилмаган инсон халқини ҳам ҳурмат қилмайди, деб ҳисоблайман. Шевани телевидениеда бемалол ишлатаётган «журналист»лар ёки турли тиллар қоришмасидан сўз бўтқаси ясаётган «доно»ларни ўз илдицига болта ураётган кимсаларга ўхшатаман. Энг ёмони, дарахтни чопаетган болтанинг сопи ҳам шу дарахтнинг танасидан олинган...

Чет тили ва ёмон сўзлар аралашган она тилимиз ҳам бундан холи бўлмаяпти. Айниқса, оғзаки нутқимиз софлигига путур етказилаётгани ҳар бир миллатпарвар кишини ташвишлантиради.

Одатда яшил майдонда тўп сураётган футболчи ўйин қоидасини бузса, ҳакам томонидан дарҳол жазоланади. Худди шундай, йўл ҳаракати қоидаларини четлаб ўтган автомобиль ҳайдовчиси

ҳамда пиёдалар ҳам жазосиз ёки жаримасиз қолмайди. Нега энди она тилимизни, унинг грамматик қоидаларини бузиб, расво қилаётганларга нисбатан чора кўрилмайди? Ахир, бу ҳам миллатимизга, халқимизга нисбатан ҳурматсизлик, демакки, жиноят эмасми?!

Ҳазрат Жалолiddин Румийнинг «Бошинга не мушкул иш тушса, ўзингдан кўр», деган ўғитларини доимо ёдимизда тутмоғимиз лозим. Она тилимизнинг қадри ва аҳамиятини ҳис этиш учун аввало унинг бор гўзаллиги ва жозибасини ҳис этиш керак. Шунингдек, тилимизнинг софлиги учун биз жон куйдирмасак, эртага фарзандларимиз чучмал тилли бўлмайди деб ҳеч ким кафолат беролмайди. Зеро, тилимизни асрасак – ўзимизни, элимизни асраган бўламиз.

Мирзоқул АҲАДОВ,
ўз мухбиримиз.

Бухоро вилояти.



SALOMATLIK SABOQLARI



ATALA

Bu taom fasllar almashinuvida, sovuq kunlarda oyoq-qo'llar sovqotishida bardoshli, chidamli bo'lishga yordam beradi. Shuningdek, ichki a'zolar og'rig'ida, oshqozon kasalliklarida jonga huzur baxsh etadi.

Buning uchun obdan dog' qilingan qora qo'chqor yog'iga qiyma go'sht solib, ustiga bug'doy unini elab, zarhal rangga kirguncha qozonda qovuriladi. Tagiga olmasligi, ya'ni kuyib qolmasligi uchun yaxshilab qorishtiriladi. Keyin keragicha suv quyiladi. Qaynagach, shopirib, osh tuzi solinadi. Natijada, sumalakdek quyuc tortadi, ta'mi totli bo'ladi.

DUMBA YOG'I

To'g'ri, hidi yoqimsiz bo'lsa-da, lekin salomatlik uchun juda foydali. Ayniqsa,



shamollash kasalligida. Buning uchun eritilgan dumba yog'idan oz miqdorda olib oyoqning tovon qismiga surtib, yengil uqalanadi va qalinroq paypoq kiyib biroz dam olinadi. Tanani terlatib, shamollash alomatlarini yo'qotadi.

SHIFOBAXSH TAOMLAR

Qadim-qadimdan xalq tabobati usullari orqali tabiiy yo'l bilan ko'plab kasalliklar davolanadi. Bugungi kungacha avlodan-avlodga o'tib kelayotgan o'zbek milliy oshxonasining shifobaxsh taomlari hali ham ming dardga davo sifatida iste'mol qilinadi.

ILIK SHO'RVA

Mazkur taom temir moddasi va kalsiyga boy bo'lgani sababli keksalar va bolalarda uchrovchi kalsiy yetishmasligi, homilador ayollarda homilaning suyaklari rivojlanishi paytida bo'ladigan bo'g'imlar og'rig'i, tish yemirilishi va soch to'kilishida foydali hisoblanadi.



Shuningdek, sho'rva uzoq vaqt qaynatilgandan so'ng olinadigan ilik yog'idan boshqa taomlar tayyorlashda bimalol foydalanish, pishiriqlar pishirish mumkin.

Ushbu taomni tayyorlash uchun o'rtacha kattalikdagi 3-4 dona ilikli suyak (molniki), suyak vaznidan 2 baravar ko'p suv, 5 dona piyoz, 3 dona kartoshka, qizil sabzi, lavlagi, sholg'om, sarimsoq, zira, zanjabil, ta'bga ko'ra tuz va boshqa ziravorlar kerak bo'ladi.

Qozonga toza qaynamagan suv quyiladi, unga yaxshilab yuvib tozalangan suyaklar va tuz solinadi. Olov balandlatiladi. Qaynab chiqqandan so'ng ustida hosil bo'lgan ko'piklar olib tashlanadi. So'ng olovni pastlatib, qozon qopqog'i yopiladi va 5-6 soat davomida qaynatiladi. Ilikdan ajralib, sho'rva ustiga chiqib qolgan yog'larni suv aralashmasdan ajratib olish kerak. Keyin zira, to'g'ralgan piyoz, qizil sabzi, lavlagi va sholg'om solib, qozon qopqog'i yopib, yana qaynatiladi. Taom pishishiga 30 daqiqa qolganda kartoshka solinadi, tuzi rostlanadi va ta'bga ko'ra boshqa ziravorlar solinadi. Shu paytda ko'katlarning bir qismini ovqatga solish mumkin. Aslida ko'katlarni pishgan taom ustiga sepilsa, foydali xususiyatlari yo'qolib ketmaydi.

SHOLG'OM SHO'RVA

Go'sht bilan qaynatilgan sholg'om kuchli taom bo'lib, me'dada uzoq vaqtga cha saqlanadi. Sholg'om



sho'rva sovuq kunlarda tanani ilitadi. Shuningdek, sholg'omdan tayyorlangan salatlar shamollashning oldini oladi va davolaydi. Oshqozon quvatsizligida sholg'om bilan uning bargini qaynatib, suvi bilan yeyish lozim. Xom sholg'om yoki uning siqib olingan suvi qon bosimini hamda isitmani tushiradi, yo'tal, ovoz bo'g'ilishi, astma kasalliklarida ham tavsiya etiladi.

DARMON SHO'RVA

Xalq tabobatida darmonsizlikda tavsiya etiladigan bu taom asosan parranda -



tovuq, jo'ja, bedana go'shtidan tayyorlanadi. Qozonga sovuq suv quyib, yaxshilab yuvib

tozalangan parranda go'shti butunligicha solinadi. Qaynab chiqqach, ko'pigi olinib, piyoz solinadi, sust olovda mildiraytib qaynatiladi. Sho'rvaga tuz, ziravorlar, oshko'klar, piyoz, to'g'ralgan qizil sabzi, kartoshka, pomidor, chuchuk qalampir ham solish mumkin. Jo'ja, bedana 1 soat, tovuq esa 2-2,5 soat davomida pishiriladi. Iste'mol vaqtida ta'bga ko'ra maydalangan achchiq qora murch qo'shish ham mumkin.

ANOR VA ANJIR KONI FOYDA

Vitaminlarga boy anor uzoq yillar mobaynida tabobatda qo'llanib kelingan shifobaxsh mevalardan biridir. Uni yana yoshlik mevasi deb ham atashadi. Bu uning tarkibida antioksidantlar miqdori ko'pligi bilan bog'liq. Ushbu moddalar organizmdagi oksidlanish jarayonlarini va qarishni sekinlashtiradi.



Agar go'sht iste'mol qilmasangiz, albatta, shu mevani dasturxoningizdan ayirmang. Chunki unda go'sht mahsulotida mavjud bo'lgan 15 ta aminokislota bor. Anor yana yod, kaliy, kalsiy, temir va kremniy kabi minerallarga boy.

Har kuni bir piyola anor sharbatini ichish qonni tozalash va yangilashga yordam beradi, yurak-qon tomir tizimiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi, immunitetni mustahkamlaydi, shamollashning oldini oladi.

Anor po'sti modda almashinuvini yaxshilaydi. U S vitamini manbasi bo'lib, organizmni zaharlovchi ko'plab bakteriyalar hamda infeksiyalarni davolashda universal vosita hisoblanadi.



Ushbu meva insonga sihat, go'zallik va yoshlik baxsh etadi, uni bejiz jannat mevasi, deb atashmaydi. Har kuni iste'mol qilingan anjir organizmning kalsiyga bo'lgan ehtiyojini qoplaydi. Ushbu mevada temir moddasi olmaga nisbatan ko'proq bo'lgani bois kamqonlikda juda foydali. U ishtahani ochadi va ovqat hazm qilishni yaxshilaydi. Anjir tarkibidagi kaliy moddasi tomirlar zo'riqishining oldini olib, qon bosimi bir me'yorda bo'lishiga xizmat qilsa, magniy asabni tinchlantirib, kayfiyatni ko'taradi, fisin esa qonning quyulashiga yo'l qo'ymaydi va tomirlardagi tromblar so'rilishiga yordam beradi. U buyrak va oshqozon faoliyatiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

Anjir qoqisidan tayyorlangan damlama terlatuvchi va issiqni tushiruvchi xususiyatga ega bo'lib, shamollash, angina, milk va nafas yo'llarini davolashda yaxshi samara beradi. Inson organizmi darmonsizlangan mahalda, yurak tez-tez urib, ko'krak sohasida og'riq paydo bo'lganda ham ushbu meva yordamga keladi. Bundan tashqari, buyrak va qovuqda toshlar paydo bo'lganida, bod va teri kasalliklarida yaxshi samara beradi.

DARMONDORILARGA BOY DO'LANA

Tog'da o'suvchi ushbu meva qon bosimini muntazam ravishda me'yorda saqlashga ko'maklashadi, miya charchog'ining oldini olib, unda qon aylanishini yaxshilaydi, xotirani mustahkamlaydi. Silla quriganida, toliqqanda, horg'inlikda, yurak atrofida og'riq



paydo bo'lganida shifo sifatida do'lana yeyish tavsiya etiladi. Ushbu meva yurak mushaklarining qisqarishini yaxshilaydi, qon tarkibidagi xolesterinni kamaytiradi. Modda almashinuvini buzilgan va qand kasalligiga chalingan, oshqozonosti bezi shamollagan bemorlarga do'lana guli va mevasidan tayyorlangan damlama ichish buyuriladi.

Bir hovuch do'lana kishini kun bo'yi tashnalik va ochlikdan asraydi, yaxshi kayfiyat, bardamlilik va quvvat baxsh etadi. Xalq tabobatida ich ketishi, aqliy charchash, uyqusizlik va asabiylashganda qo'llaniladi. Do'lana qon tomirlarini kengaytiradi va qon aylanishini yaxshilaydi. Ushbu meva ovqat hazm bo'lishiga va yegulikning oshqozonda maydalashiga yordam beradi. Metabolizmni oshiradi, ichni yumshatadi, spazm, qorin dam bo'lishini yo'qotadi. Do'lana organizmdan toksinlarni chiqarib yuboradi. Tarkibidagi S vitamini esa leykotsitlarni faollashtiradi va immun tizimini yaxshilaydi.

Sahifani Adolat FAYZIYEVA va Gulchehra AZIMOVA tayyorladi.

Tavsiyalarga amal qilishdan avval shifokor bilan maslahatlashing.



■ Джизакская область

В последнее время осуществляется ряд мер, направленных на улучшение условий службы сотрудников отдела внутренних дел Пахтакорского района.



На территории отдела построено здание с 14 просторными кабинетами. В них расположатся группы миграции и оформления гражданства, пробацции, комнаты приема обращений граждан. Предусмотрено помещение для отдыха личного состава и столовая. Строители завершают отделочные работы.

Сооружены строевой плац и workout-площадка, автостоянка.



Построен изолятор временного содержания на 25 мест. Установленные

камеры наблюдения позволяют контролировать ситуацию.

Камеры, смонтированные внутри здания, позволяют записывать звук. Они интегрированы в МВД, ОПП УВД, дежурную часть РОВД.

Выделены и оснащены необходимым оборудованием служебные кабинеты, кабинет адвоката, комнаты для свиданий с близкими.

Мирзаахмад АБДУХАЛИЛОВ, подполковник.



MUNAJJIMLAR BASHORATI

(7-oktabrdan 13-oktabrgacha)



Qo'y. Bu hafta hayotingizda nimaiki sodir bo'lsin, hammasini yaxshilikka yo'yishga harakat qiling. Oilada ba'zi bir tushunmovchilik va ko'ngilxiraliklar kuzatilishi mumkin. O'z manfaatlaringizni chetga surib, qadrdonlaringizga yon bergan holda, murosa yo'lini tutishingizga to'g'ri keladi.



Buzoq. Bu hafta sizga moliyaviy jabhada omad kulib boqadi. Lekin har bir ishda boshqaruvni o'z qo'lingizga olib, kuchli ishonch va qat'iyat bilan harakat qiling. Bu davrda his-hayajonga berilmay, imkon qadar bosiqlik bilan ish yuritish lozim. Shanba va yakshanba kunlari toza havoda sayr qiling yoki faol harakatda bo'ling.



Egizaklar. Haftaning ilk kunlari moliyaviy ahvolingiz yaxshilanib, hatto sarmoyali takliflar olishingiz mumkin. Bu pallada sizni yangi taassurotlar va yorqin his-tuyg'ular kutmoqda. Ham shaxsiy masalalar, ham ish yuzasidan ko'p joylarda bo'lishingiz kutilmoqda. Faqat bu orada o'z vaqtida dam olishni ham unutmang.



Qisqichbaqa. Dushanba va seshanba shaxsiy hayotga e'tibor qaratish uchun qulay palla. Keyingi kunlar odatdagidek bir xilda va zerikarli o'tishi, na yaxshi, na yomon xabar ulashmasligi kutilmoqda. Haftaning oxirgi kunlari og'ir keladi, shu bois me'yordan ortiq g'ayrat bilan harakat qilmaslikka urining.



Arslon. Sizni yoqimli o'zgarishlar kutmoqda. Oila a'zolaringiz bilan munosabatda ba'zi qarashlaringizni o'zgartirib, sabrli va shirinso'z bo'ling. Jismonan og'ir vazifalardan chetlashib, ta'bni xira qiluvchi va ko'ngilni og'rituvchi barcha holatlardan uzoqlashing. Hafta so'ngida ular bilan birga toza havoda sayr qiling.



Parizod. Oilaviy munosabatlarni mustahkamlash uchun yaqinlaringizga kutilmagan sovg'a hozirlang. Agar o'tmishdan qolgan inson tasodifan yo'lingizdan chiqib, sizda salbiy hissiyotlar uyg'otsa, o'zingizni qo'lga oling. Haftaning ikkinchi yarmida ruhiyatingiz yaxshilanib, kayfiyatingiz ko'tariladi.



Taroz. Shu kunlarda kim bilandir tortishgan va janjallashgan bo'lsangiz, imkon qadar tezroq yarashishga harakat qiling. Uzaygan nizolar yaxshilik olib kelmaydi. Ish joyingizda zimmangizga murakkab vazifa yuklanishi mumkin. Mazkur hafta ish bilan bog'liq tadbirlarda ishtirok etish uchun maqbul davrdir.



Chayon. Ruhiy tushkunlik va bezovtalik hissi - sizga bu hafta pand berishi mumkin. O'z hisslaringizni jilovlashga harakat qiling. Bu davrdagi uchrashuvlar yoqimli, ba'zilar esa hatto esda qolarli bo'ladi. Mehmonga taklif etishsa, zinhor rad etmang.



O'qotar. Ushbu davr siz uchun juda hayajonli kechadi. Ko'pgina ustuvor va ahamiyatga molik ishlarni hal qilishga erishasiz. Lekin ushbu jo'shqin jarayonda e'tiborli bo'ling. Hafta so'ngida intiqib kutilgan hordiq onlaridan bahramand bo'lasiz.



Tog' echkisi. Hayotingizda jiddiy o'zgarishlarga tayyor turing. Umrini ikkinchi jufti bilan bog'lashga ulgurmagani bu hafta yangi tanishuvlar kutmoqda. O'zingizni yomon his qila boshlasangiz, ishdan biroz ta'til olishni tavsiya etamiz. Vaqtni toza havoda, tabiat qo'ynida o'tkazish siz uchun juda foydali bo'ladi.



Qovg'a. Sizni qizg'in hafta kutmoqda. Ham ishdagi, ham oilaviy turmushdagi masalalarni hal qilishga to'g'ri keladi. Sa'y-harakatlaringiz o'z natijasida barcha muammolarning uddasidan chiqasiz. Transport vositasini boshqaruvchilar bu hafta davomida o'ta ehtiyotkor va diqqatli bo'lishlari lozim.



Baliq. Bu davrda ish faoliyati old safdan o'rin egallaydi. Rahbariyat tomonidan sizga kelajakda kasbiy o'sishingizga ta'sir ko'rsatishi mumkin bo'lgan murakkab vazifa topshiriladi. Shu sababdan imkon qadar diqqatli va g'ayrat-shijoatli bo'lishga harakat qiling. Dam olish kunlarini yaqinlar davrasida o'tkazish oilaviy munosabatlarni yanada mustahkamlashga xizmat qiladi.

Ўзбекистон, Туркменистон, Татаристон ва Қорақалпоғистон халқ артисти, Ҳамза мукофоти совриндори Отажон Худойшукуров Хоразм қўшиқчилик санъатининг йирик намояндасидир. Унинг бетакрор санъати, қўшиқлари нафақат бизда, балки бутун туркий халқлар орасида ҳам манзур ва машҳур.

Отажон Худойшукуров кўплаб мумтоз ашула ва қўшиқларни юксак маҳорат билан ижро этган. Кўп минглаб мухлислар орттирган. Кейинчалик таниқли ҳофизларга айланган шогирдлар тарбиялаган. Унинг сўз, соз ва ижронинг ўзига хос уйғунлигидаги қўшиқларини том маънодаги ўлмас наволар, десак, асло муболаға бўлмайд.

Мен Отажон Худойшукуровни болалигимдан танийман. Қўшиқларини оиламиз билан мириқиб тинглардик. Отам унинг қўшиқлари ёзилган пластинкаларни топиб, бизга қўйиб берар эди. Устози Назир Рахимовнинг уйига тез-тез келиб, «Кийикнома» қўшиғини ўрганиб, бирга ижро қилишганидан хабарим бор. Қолаверса, қишлоғимиздаги катта клубга тез-тез келиб, тўрт-беш соатлаб концерт берганлари ҳам кечагидек ёдимда.

Яна эсимдаки, бир гал қишлоғимиздаги навбатдаги концертда юқори авжда қўшиқ айтаётган пайтида микрофон дош беролмай қўйиб қолганди. Шу сабаб концерт охиригача микрофонсиз қўшиқ ижро этган.

Отажон оға бундан эллик йил олдин Амударё тумани пахта режасини бажаргани муносабати билан Манғит шаҳридаги стадионда катта концерт берган эди. Бу концертга ҳатто қўшни Туркменистондан мухлислар келганди. Стадионга киролмасдан, тенгқурларим билан дарахт устига чиқиб, концерт томоша қилганмиз. Ўшанда илк бор «Биринчи муҳаббатим» қўшиғини юқори авжда эшитганим ҳали-ҳануз қулоғим остида жаранглаб турибди.

ХАЛҚ СЕВГАН ҲОФИЗ



Мустақиллигимизнинг дастлабки йилларида «Ўзбекистон» радиосида ишлаган пайтларимда республиканинг турли вилоятларида, туманларида яшайдиган турли касб эгаларидан интервью олишимга тўғри келган. Улар албатта эшиттиришда

шундай хотирлайди: «У жуда камтарин ва самимий инсон, бетакрор овоз соҳиби эди. Мустақилликнинг дастлабки йилларида Отажон оға, турмуш ўртоғим Султонпошша Ўдаева ва бир гуруҳ санъаткорлар Туркияга 10 кунлик сафарга бордик.

Дастлаб бир университетда концерт бердик. Бу ерда талабалар Отажон оғани давомли қарсақлар билан қарши олди. Истанбул ва Анқара шаҳарларида ўтган концертларда ҳам унинг қўшиқларини тинглаган мухлислар саҳнадан қўйиб юбормасди. Ҳатто Туркия телевидениеси 2 соатлик концертни олтин фондга ёзиб олди».

Отажон Худойшукуровнинг ашаддий мухлиси, таниқли хонанда Султонпошша Ўдаева ҳам суҳбатга қўшилди:

– Мен у киши билан кўплаб давлат тадбирларида, концертларда ва тўй-ҳашамларда бирга қатнашганман ва бундан жуда бахтиёрман. Халқимиз доимо Отажон оғани давомли қарсақлар билан кутиб олган. 4 октябрь – таваллуд кунда уйларида бориб хизмат қилганмиз. Устозимнинг руҳлари шод бўлсин.

Пўлат ХУДОЙБЕРГАНОВ,
Ўзбекистон Ёзувчилар уюшмаси аъзоси.



Отажон Худойшукуров қўшиқларини эфирга узатилишини сўрашарди. Бундан ташқари, санъаткорнинг номига бир кунда 90–100 та хат келар эди.

Айни пайтда мамлакатимиз радиоси олтин фондида Отажон Худойшукуровнинг 60 дан ортиқ мумтоз ашулалари, қўшиқлари мавжуд ва мунтазам эфирга узатиб келинмоқда.

МТРКда узоқ йиллар мусиқа муҳарририяти директори вазифасида фаолият юритган Сафар Олимбоев буюк санъаткор ҳақида

MUASSIS:
O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
ICHKI ISHLAR VAZIRLIGI

Bosh muharrir –

polkovnik
Bernora SADIKOVA

Bosh muharrir o'rinbosarlari –

podpolkovnik Azizjon FAYZIYEV
kapitan Aziza BOHODIROVA

Mas'ul kotib –

Erkin SATTOROV

Navbatchilar –

Temir QURBONOV
Radik TUMPAROV

Sahifalovchilar –

Zokir BOLTAYEV
Ilhom JUMANOV
Akbar BOLTAYEV

Fotomuxbirlar –

Abu KENJAYEV
Ikrom HASANOV

TELEFONLAR:

71-231-33-88;

Faks: 71-231-40-05.

Obuna masalalari bo'yicha:

71-231-38-74;

97-420-89-24

Web-site: www.postda.uz

E-mail: info@postda.uz

ISSN 2010-5355



Tahririyat hisob raqami
h/r 23402000300100001010.

Bank kodi 00014.

O'zbekiston Respublikasi
Iqtisodiyot va moliya
vazirligi g'aznachiligi.

Shaxsiy h/v
470010860262877031101179001
STIR 200637499.

Tahririyatga kelgan qo'lyozma va suratlar egasiga qaytarilmaydi.

Nashrimizdan ko'chirib bosilganda manba ko'rsatilishi shart.
Gazeta tahririyat kompyuter markazida terildi va sahifalandi.

«Kolorpak» MCHJ
bosmaxonasida chop etildi.
Korxonaning manzili: 100206
Yunusobod tumani,
Yangishahar ko'chasi 1^A-uy.

Gazeta O'zbekiston Respublikasi
Prezidenti Administratsiyasi
huzuridagi Axborot va ommaviy
kommunikatsiyalar agentligi
tomonidan 2020-yil 13-yanvarda
0120-raqam bilan ro'yxatga
olingan.

Buyurtma №3425.

Bosilish – ofset usulida.
Bichimi – A3. Hajmi – 6 bosma
taboq. 45856 nusxada chop etildi.

Obuna raqamlari:

Yakka tartibda – 180.
Tashkilotlar uchun – 366.
Bosishga topshirish vaqti – 22.00.
Bosishga topshirildi – 21.00.
Sotuvda kelishilgan narxda.

MANZILIMIZ:

100070, Toshkent shahri,
Shota Rustaveli 1-berk
ko'chasi 9-uy.